

MOTIVATSIYA VA **IQTIBOSLAR TO'PLAMI**



2025-yil

IQTIBOS VA DONO SO'ZLAR TO'PLAMI

1. Chiroyli gaplardan ko'ra, chiroyli amallar yaxshiroq.
2. Mayda-chuyda harajatlaringizdan ehtiyot bo'ling. Kichkina teshik katta kemani cho'ktirishi mumkin.
3. Kim pul hamma narsani qila oladi deb da'vo qilsa, uning o'zi pul uchun hamma narsani qila oladi.
4. Uchta inson sirni saqlashi mumkin. Agar ularning ikkitasi o'lgan bo'lsa.
5. Qarzga botishdan ko'ra, kechki ovqatni yemagan ma'qul.
6. Kambag'allik uyatli hol emas, ammo bundan uyalish haqiqiy uyatli hol.
7. Dushmanlaringizni seving. Chunki ular kamchiliklaringizni aytadigan insonlardir.
8. Uyquga barvaqt yotib, barvaqt uyg'onish-kishini sog'lom, boy va dono qiladi.
9. Agar boy bo'lishni istasangiz, nafaqat pul ishlab topishni balki, uni tejashni ham o'rganing.
10. Bahona topishga usta bo'lgan kishi kamdan kam hollarda bosha bir narsada usta bo'ladi.
11. Agar qiz bolaning kamchiliklarini bilmoqchi bo'lsangiz, uni ko'pchilik oldida maqtang.
12. O'z oyag'ida tikka turgan dehqon, tiz cho'kib turgan janobdan ancha balandroqdir.
13. Bitta yaxshi er ikki yaxshi xotinga tengdir. Chunki Tovar qancha kamyob bo'lsa, shuncha qimmat turadi.
14. Dushmanga qarz bering va shunda yangi do'st topasiz. Do'stingizga qarz bering va siz uni yo'qotasiz.
15. Agar o'limingizdan so'ng unitilib ketishni xohlamasangiz, munosib kitoblar yozing yoki kitoblarda yozilishga arziydigan ishlar qiling.
16. Bu dunyoda faqat ikki narsa muqarrardir-o'lim va soliqlar.
17. Kuchli inson bu- yomon odatlarni yengishga muvaffaq bo'lgan insondir.
18. Kam yeydigan insoning dangasasi bo'lmaydi.

19. 20 yoshda odamda istak hukmronlik qiladi, 30 yoshda aql, 40 yoshda tajriba.
20. Faqatgina maqsadni aniqlashda ikkilanish mumkin. Maqsad aniqlangandan so'ng esa shunchaki harakatni to'xtatmaslik kerak.
21. Axmoqlikning birinchi darajasi o'zini dono deb bilish, ikkinchisi bu haqda gapirish, uchunchisi maslahatni rad etish.
22. Jahl bilan boshlangan narsa sharmandalik bilan tugaydi.
23. Aka-ukalar har doim ham do'st bo'lmasligi mumkin, lekin do'stlar doim aka-ukalardir.
24. Farzandingizga sukut saqlashni o'rgating, gapirishni o'zlari ham o'rgana oladilar.
25. Ko'pchilik insonlar 25 yoshda o'ladi, ammo 75 yoshga yetgach ko'miladi.
26. Qiyinchilik yo'q joyda, rivojlanish ham bo'lmaydi.
27. Fikrlariga boylik egalik qiladigan inson, hech qachon boylikka egalik qila olmaydi.
28. Eng yaxshi voqealar rivojiga umid qil lekin yomoniga tayyor tayyorlan.
29. Men testdan yiqilmadim, uni hato yechishning 100 ta usulini topdim xolos.
30. Uchta haqiqiy do'st bor, eski xotin, keksa it, va naqd pul.
31. Bugun qila oladigan ishingizni-aslo ertaga qoldirmang.
32. Puli yo'qligidan hamma noliydi, aqli yo'qligidan esa hechkim.
33. Kim ortiqcha narsalarni sotib olishdan to'xtamasa, oxir oqibat kerakli narsasini sotadi.
34. Kimki havfsizlik uchun ozodligini qurbon qilsa, u na ozodlikka, na havfsizlikka loyiqdir.
35. Bolaga itoat qilishni o'rgating va shundagina unga xohlagan narsani o'rgata olasiz.
36. Halollik-eng yaxshi siyosatdir.
37. Agar bironta ham dushmaning bo'lmasa-hayotda hech narsaga erishmabsan.
38. Yashash - yolvorishga arziydigan narsa emas.
39. Har qanday g'alaba - urinib ko'rish istagidan boshlanadi.

40. Mardlik kuchda va shamshir o'ynatish san'atida emas, mardlik o'zini tuta bilish va adolatli bo'lishdadir.
41. Keragidan ortiq fidokorlik, keragidan ortiq vafosizlikka olib keladi.
42. Agar ketganingizni hechkim sezmagan bo'lsa, demak ketib tog'ri qilibsiz.
43. O'zing topib yegan sirkayu-piyoz oqsoqolning nonu-barrasidan soz.
44. Duch kelgan narsani yegandan ko'ra, och qolgan afzal va men hozir ovqat haqida gapirmayman.
45. Dushman yiqilgan payt shavqat qila ko'rma, zero u kuchga to'lgan payt senga shavqat qilmas.
46. Harakatdan to'xtamaslik kerak, joyida o'tirsa sher ham ochidan o'ladi. Joyida o'tirsa kiyik ham kimdurga yem bo'ladi.
47. O'zing haqingda yomon so'zlama, zero ichingdagi jangchi buni eshitadi va zaiflashadi.
48. Jasurlik bu - hech narsadan qo'rqmaslik emas. Jasurlik bu - qo'rquvlariga qaramasda oldinga qarab intilishdir.
49. Jang qanchalik qiyin bo'lsa, zafar shunchalik yoqimli bo'ladi.
50. G'alabalar davrida - kamtar bo'l. mag'lubiyatlar davrida esa - hotirjam.
51. Pishish uchun biroz yonmoq kerak.
52. Hudo sizga - deyarli hamma narsaga bardosh bera oladigan tana bergan. Sizning vazifangiz - bunga o'zingizni ishontirish holos.
53. Tushkunlik bu - insonga yangi imkoniyatlarni kashf qilish uchun bir belgidir.
54. Boshqalarning ko'zida hurmatingni oshiradigan muhim hislar bu - hotirjamlikdir.
55. Balandparvoz so'zlar - bu zaif insonlarning birinchi belgisi. Katta ishlarga qodir bo'lgan shaxs odatda kamgap bo'ladi.
56. Qonunlar bu - o'rgimchak to'ri. Kichik hashoratlar unda halok bo'ladi. Kattalari esa borgan sari kuchga to'lib boradi.
57. Qiyin davrlar kuchli odamlarni yetishtiradi, Kuchli odamlar yengil davrlarni keltirib chiqaradilar. Yengil davrlar kuchsiz odamlarni yetishtiradi. Kuchsiz odamlar qiyin

davrlarni keltirib chiqaradi. Buni hamma ham tushunmaydi lekin biz jangchilarni tarbiya qilishimiz kerak, boqimandilarni emas.

58. Dushmanni kechir lekin uning ismini unutma.

59. Agar havfni bartaraf etishning imkoni bo'lmasa qo'rqqoqlikdan nima naf? Ahir u baribir seni qutqara olmaydiku.

60. Kapalakni quvmang, bog'ingizni gullating, shunda kapalakning o'zi keladi.

61. Kuchliroq bo'lishning yagona yo'li kuchliroq raqib bilan o'ynash.

62. Mukammalikka erishishning iloji yo'q, lekin baribir unga intilish kerak.

63. Agar qayeringdir og'risa, hechkinga bildirma aks xolda shu joyinga zarba berishadi.

64. Barchamiz iqtidorlimiz. Lekin agar baliqni daraxtga chiqa olish qobilayati bilan baholaydigan bo'lsak, u bir umir o'zini axmoq deb o'ylab o'tadi.

65. Farzandlaringizga tarbiya bermang. Ular baribir sizga o'xshab ulg'ayadi, shu sabab avvalo o'zingizni tarbiya qiling.

66. Deyarli barcha insonlar qiyinchiliklarga bardosh bera oladi. Aslida qanday insonligin bilmoqchi bo'lsangiz unga kuch qudrat berib ko'ring.

67. Agar pul qalbingizda emas, qo'lingizda bo'lsa - qanchalik ko'p bo'lmasin sizga zarar yetkazmaydi. Lekin pul dardi qalbingizni egallagan bo'lsa - bu aniq sizga zarar keltiradi.

68. Vaqt o'tgani sayin 30 dollarlik soat ham 300 dollarlik soat ham bir vaqtni ko'rsatishni anglay boshladim.

69. O'z nafsini jilovlash, arslonni bo'ysindirishdanda qiyinroq. Nafs isyonini bartaraf etish shaharlarni zabt etishdanda kattaroq yutuqdir.

70. Hudodan yengil hayotni emas, sizni kuchliroq qilishni so'rang.

71. Qaror qabul qilishda sokin bo'l, uni amalga keltirishda esa shiddatli bo'l.

72. Omad-jasurlarga yo'ldoshdir.

73. Agar kimdir ortingizdan tupurgan bo'lsa, bilingki siz oldindasiz.

74. Ilk tasurot qoldirish uchun ikkinchi imkoniyat berilmaydi.

75. Agar kema sohilda tursa har doyim havfsizlikda bo'ladi. Lekin u, bu maqsadda qurilmagan.

76. Hotirjamlik va sabr - toqat inson tanasida mujassam eng katta kuchdir.
77. Agar muammoni pul bilan yechishning iloji bo'lsa, bu muammo emas, shunchaki harajat.
78. Kuchli bo'lgan payting - zaif bo'lib ko'rin. Zaif bo'lgan payting esa - kuchli bo'lib ko'rin.
79. Agar senga akillagan har bir itga tosh otish uchun yo'lingdan to'xtayversang, hech qachon kerakli manzilga yetib bora olmaysan.
80. Baxtli yashashni istasangiz - hayotingizni maqsadlarga bog'lang. Insonlarga yo buyumlarga emas.
81. Kim nima desa - desin, nima qilsa - qilsin lekin sen doim yaxshi inson bo'lib qol.
82. 1-maslahat. Uzoqni ko'zlagan rejalaringiz haqida hech kimga gapirmang. Bu reja amalga oshmaguncha sukut saqlang. Bizning g'oyalarimiz nafaqat nuqsonlidir balki juda zaif tomonlarga ega. Ularni yo'q qilish va buzish juda ham oson.
83. 2-maslahat. Qayerdandir eshitgan hunuk so'zlar va noxush xabarlar haqida gapirmang. Ko'chada oyoqni kiyimni loy qilish mumkin bo'lganidek, miyani ham chiqindilarga to'ldirish mumkin. Qarshingizdagi odamga bemani va axmoqana so'zlarni gapirish uyga oyoq kiyimni yechmasdan kirib kelish bilan barobardir.
84. 3-maslahat. Uydagi nizolar va oilaviy hayotingiz haqida gapirmang. Unutmang oiladagi muammolar haqida qanchalik kam gapirsangiz oila shunchalar kuchli va barqaror bo'ladi. Aksincha, muammolar haqida qanchalar ko'p gapirsangiz ularni yengish shunchalar qiyin bo'ladi.
85. 4-maslahat. Jasorat va qahramonlik qilganingiz haqida hechkimga gapirmang. Barchamiz har kun turli xil qiyinchiliklarga duch kelamiz, ularning bazilari ichki tomondan bazilari tashqi tomondan yuzaga keladi. Tashqi qiyinchiliklarni yengan odam o'z - o'zidan ko'rinadi va mukofatlanadi. Ammo hechkim ichki sinovlarni yengib o'tganingizni bilmaydi. Bilsa ham buning uchun hech qanday mukofat berilmaydi.
87. 6-maslahat. Ruhiy xolatingiz haqida ortiqcha gapirmang bu faqat sizga tegishli masala, va hechkim bunga aralashmasligi kerak. Agar bu siz va atrofingizdagilar uchun foydali bo'lsagina gapirishingiz mumkin.
88. 7-maslahat. Ba'zan siz davradagi eng aqilli odamsiz. Lekin buni bildirmaslikka harakat qiling. O'zingizni hech narsani bilmaydigan odamdek tuting. Qolganlar esa gapiraverishsin ularni gapini bo'lmang va o'zingiz uchun xulosa chiqaring. Bu sizga juda

katta ustunlik beradi. Ba'zan esa siz davradagi eng axmoq insonsiz, lekin agar sukut saqlasangiz buni hech kim bila olmaydi. Jimgina eshitib o'tiring va siz yana davradagi eng aqilli odamga aylana boshlaysiz. Chunki odamlarni o'zlari sizga hamma narsani aytib berishadi.

89. Uchayotgan yulduzga tilak tilashdan ne naf? Axir sen shu yulduzni yaratgan zotga ibodat qilishing mumkin-ku.

90. Yaxshi inson bo'l lekin buni isbotlash uchun vaqt sarflama.

91. Vaqt bu-pul emas. Undanda qimmatliroq narsadir.

92. O'zingni hammaga ishongandek tut. Lekin hechkimga ishonma.

93. Atrofdagilarni xurmat qil va o'zinga nisbatdan shunday xurmatni talab qil.

94. Hayotni sev, har doyim uni yaxshilash harakatida bo'l.

95. Agar bugun yurishni boshlamasang, ertaga yugurishga tog'ri keladi.

96. Hammaga yoqishga harakat qilma, buni iloji yo'q, Keragi ham yo'q.

97. Agar yig'laging kelsa yig'la, bu dardni ichinga yutushdan ko'ra yaxshiroq.

98. Sen sevadigan inson bilan bo'lganing yaxshi lekin seni sevadigan inson bilan bo'lishing muhim.

99. Qancha ko'p gapirsang, so'zingni qiymati shuncha kam bo'ladi.

100. Nimanidur boshlamoqchi bo'lsang tezroq boshla. G'ayrat juda tez so'nish hususiyatiga ega.

101. Atrofdagilardan uyalganing uchun istagingdan vos kechma, qo'rqmasdan oldinga qadam bos va hechkimni eshitma.

102. Xursandligingda va'da berma, jahling chiqqanida hech qanday qaror chiqarma.

103. Mard va jasur bo'l. Garchi unday bo'la olmasang ham o'zingni shunday tut.

104. Nimagadur egalik qilish unchalik muhim emas, asosiysi hech nima senga egalik qilmasin.

105. Xato qilishdan qo'rqma, bitta xatoni ikki marta qilishdan qo'rq.

106. Hechkimdan hafa bo'lma, shunchaki o'zing uchun xulosa chiqazib ol.

107. Nodon bilan bahslashish uchun vaqt sarflama va g'iybat qilishdek past ishni o'zinga ep ko'rma.

108. Pul to'plashni birinchi maoshingdan boshla.

109. G'alabalar davrida o'zingni kamtar tut, mag'lubiyatlarni esa sharaf bilan kutib ol.

110. Eng yaxshi kiyimlaringni bugun kiy, yoqtirgan taomingni bugun tayyorla, aytmoqchi bo'lgan gaplaringni bugun ayt. Qulay vaqt kelishini kutma, u hech qachon kelmaydi.

111. Hayotni murakkablashtirma, kuchli insonlar doim oddiydirlar.

112. Kichik narsaga ham xursand bo'lishni va katta talofatdan ham hafa bo'lmaslikni o'rgan. Chunki vaziyat qanchalik yaxshi yo yomon bo'lmasin u baribir o'zgaradi.

113. O'zingni va hayotingni boshqalar bilan taqqoslama, aks xolda hech qachon baxtli bo'la olmaysan.

114. Sendan o'z maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lganlardan uzoq yur.

115. Hamma uxlayotganida sen izlan. Hamma dam olayatganida sen ishla, Hamma yig'layotganida sen orzu qil, va sen yutish imkonsiz bo'lgan joyda ham yutasan.

116. Bilim-bu nima so'zlashni bilishdir. Donolik-bu qachon so'zlashni bilishdir.

117. Har qanday g'alaba urunib ko'rinish istagidan boshlanadi.

118. Biz bo'sh vaqtni qo'lga kiritish uchun bo'sh vaqtdan mahrum bo'lamiz, tinch yashash uchun esa urushamiz.

119. Jasoratsiz aql-ayolga hos hislat. Aqlsiz jasorat-hayvonga hos hususiyat.

120. Kim fanda ilgarilab, axloqda oqsasa, u oldinga emas, ko'proq orqaga ketibdi.

121. O'n bora ko'p ish qilgandan ko'ra bittagina ishni tobiga yetkizgan ma'qul.

122. Hech narsa inson tanasini uzoq davom etadigan jismoniy harakatsizlik kabi barbod qilmaydi.

123. Eng zarur fan-bu keraksiz narsalarni unitish fanidir.

124. Juda ko'p erkaklar noshukur ayolni baxtli qilishga urinib, oqibatda o'zlarini yo'qotadilar.

125. Eng katta jinoyatlar yo'qchilikdan emas, haddan tashqari to'qchilikdan sodir etiladi.

126. Aql-bu bilimni amalda qo'llay olish qobiliyatidir.
127. Agar havfni bartaraf etishning imkoni bo'lmasa, qo'rqqulikningdan nima naf? Axir u baribir seni qutqara olmaydiku.
128. O'z nafsini yenggan odam-barcha dushmanlarini yenggan odamdan kuchliroqdir.
129. Ehtiroslarni, ulardan o'zidan tiygan emas, balki ulardan kema yoki otni boshqaragandek, to'g'ri foydalanadigan, ya'ni ularni foydali va kerakli joyga qaratadigan inson boshqaradi.
130. Do'stlik-ikki tanada yashovchi bir qalb kabidir.
131. Barcha illatlar-ilmsizlikining oqibati.
132. Agar sizga yolg'izlik yoqsa, demak sizda ichki kuch va mustaqil fikrlash qobiliyati mavjud.
133. Saxiy inson-bu mos keladigan insonga mos keladigan narsani mos keladigan paytda beradigan inson.
134. Kerakli javobni eshitishni istagan kishi dastlab to'g'ri savol berishi kerak.
135. Hokimiyatni pul evaziga sotib oladiganlar, undan foyda olishga ham odatlanib qolishadi.
136. Bahsda haq bo'la turib, sukut saqlay oladigan kishida katta kuch mujassam.
137. Inson o'zi qodir bo'lgan eng yuqori natijaga erishishi o'ziga qilgan eng katta sovg'adir.
138. Dono kishi lazzat olishga intilmaydi, u azoblardan holi bo'lishga intiladi.
139. Dushman tanqidiga eng yaxshi javob-tabassum qilish va unitishdir.
140. Agar siz harakat qilishga qaror qilsangiz, shubha uchun eshiklarni yoping.
141. Yagona, haqiqiy xato-bu o'tmishdagi xatolarni tuzatmaslik.
142. Kambag'allar boylardan nafratlanadi. Zaiflar kuchlilardan nafratlanadi. So'zlovchi bajaruvchilardan nafratlanadi. Chunki nafratlanish oson, g'alaba qozonish qiyin.
143. Hech kim bir daryoda ikki marta bo'lmagan. Negaki, bir lahzada daryo ham o'zgaradi, unga tushgan inson ham oldingiday emas.
144. Xijolat bo'ladigan yagona mavjudod bu-inson. Chunki ugina xijolatga qo'yadigan ish qiladi.

145. Hech qachon ahmoqlar bilan bahslashmang, ular sizni o'z darajasiga tushirib, so'ngra bahsda g'olib bo'lganlarini e'lon qiladilar.
146. Yer sotib oling, u endi ishlab chiqarilmaydi.
147. O'g'ri hayoting va hayoting o'rtasidagi tanlovga ixtiyor beradi. Xotin esa ikkovini ham talab qiladi.
148. Inson hayotida ikki ahamiyatli kun bor: Birinchisi-dunyoga kelgan kuni, ikkinchisi-nima uchun bu dunyoga kelganini anglagan kuni.
149. Yangi g'oya o'ylab topgan kishining g'oyasi-muvoffaqiyat qozonmaguncha uni tentakka chiqarishadi.
150. O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir.
151. Yakuniga yetgan do'stlik-hech qachon haqiqiy bo'lmagan.
152. Haqiqatni insonga ho'l sochiq kabi uloqtirmang, balki kiyilayotgan palto kabi uzating.
153. O'lim to'shagida yotganimizda, faqat ikkita narsadan afsuslanamiz- oz sevganimizdan va oz sayohat qilganimizdan.
154. Yosh- bu faqatgina ongimizda mavjud bo'lgan narsa. Agar siz bu haqida o'ylamasangiz, u mavjud emas.
155. Sizni zaxira variant sifatida ko'radigan shaxslarni-hech qachon ustuvor o'ringa qo'ymang.
156. Agar siz faqat rost gapirsangiz, hech narsani eslab qolishingiz shart emas.
157. Jim turib, ahmoqdek ko'rinish-gapirib qo'yib, barcha shubhalarni yo'q qilishdan yaxshiroq.
158. Samimiylik yo'qotilgan san'at turlarining eng a'losi.
159. Siz davolagan it sizni hech qachon tishlamaydi. Bu hayvon va odam o'rtasidagi asosiy farq.
160. Bankir bu-quyosh charaqlab turgan paytda sizga soyabonni qarzga berib, yomg'ir yog'a boshlashi bilanoq soyabonini qayta so'raydigan do'stga o'xshaydi.
161. Men hech qachon maktabni ta'lim olishimga xalaqit berishiga yo'l qo'ymaganman.
162. Ko'pincha odamni aldashning eng ishonchli yo'li-unga sof haqiqatni aytishdir.

163. Yaxshilik bu-karlar eshitadigan va ko'rlar ko'radigan narsadir.
164. Xato qilish huquqi-shaxsning erkin rivojlanishining kafolatlaridan biridir.
165. Xarakterli odam har doim birinchi taklifni rad etadi, taklif maksimal darajada manfaatli bo'lsa ham.
166. Shovqin-suron, baqirish hech narsani isboti bo'lib xizmat qilmaydi. Odatda kichik tuxum qo'ygan tovuqning qichqirishi dunyoni buzadi.
167. Agar hamma boy bo'lganida, hamma kambag'al bo'lar edi.
168. Mushukni bir marta dumidan tortib ko'rgan odam-mushuklar haqida faqat o'qigan, lekin ularni hech qachon ko'rmagan odamga qaraganda ko'proq biladi.
169. Agar pul kerak bo'lsa, begonalarni oldiga bor. Maslaxat kerak bo'lsa, do'stlaringni oldiga bor. Agar hech narsa kerak bo'lmasa, qarindoshlaringni oldiga bor.
170. O'zingizga nisbatdan ishonch hissiyotga putir yetkazmoqchi bo'lganlardan qoching Bu mayda odamlarga xos xususiyat. Ulug'vor odam, aksincha, sizning ham ulug'vor bo'lishingiz mumkinligiga ishonch uyg'otadi.
171. Hech qachon qarz bermang, chunki bu insonni hayotingizdan chiqazib yuborishing eng oson yo'li.
172. Keling shunday yashaylik-ki, vafot etganimizda go'rkov ham afsuslansin.
173. Yig'lama, chunki hammasi ortda qoldi. Tabassum qil, chunki hali hammasi oldinda
174. Mukammal ravishda bir joyda turishdan ko'ra, nuqsonli qadamlarni tashlagan ma'qul.
175. Qiyin ko'ringan narsalar- aslida juda oson. Oddiy ko'ringan narsalar-aslida juda murakkab.
176. Dastlab atrofga qaradim, va orzu qilgan mashinani topa olmadim, shuning uchun ur o'zim qurishga qaror qildim.
177. Sizning harakatingiz olib kelishi mumkin bo'lgan eng yomon oqibatlarni tasavvur qiling, ularga oldindan ko'niking va harakatni boshlang.
178. O'zing o'zgarmasang, olam o'zgarmas.
179. Odamzot o'ziga kerak bo'lgan insonlarga talpinib, o'zi kerak bo'lgan insonlardan qochadi. Oqibatda hech kimga keraksiz odamga aylanib qoladi.

180. Men faqat hech narsa bilmasligimni bilaman lekin atrofimdagilar shuni ham bilishmaydi.

181. Bir kun kelib sham o'zini yo'q qilgan ipni quchoqlab yashaganini tushunadi.

182. Biz haqimizda yaxshi gumon qilganlarga allohning raxmati bo'lsin. Biz haqimizda bizda yo'q narsalarni gapirganlarni esa alloh kechirsin.

183. Farzand-soxta qarindoshlarni, ota ona-soxta do'stlikni, do'stlar-soxta sevgini payqaydi.

184. Yaxshi yolg'onchi bo'lishi uchun, barchani sen yomon yolg'onchi ekanligingga ishontirish kifoya qiladi.

185. Och qorin, bo'sh cho'ntak va yaralangan qalb hayotning eng yaxshi saboqlarini beradi.

186. Odamlarni rozi qilish hech qachon amalga oshmaydigan orzudir.

187. Sizga "yo'q" degan odam vaqtingizni tejabdi.

188. Agar sen boy oiladan bo'lmasang, boy oila sendan boshlanishi kerak.

189. Dangasa xodimga qiyin vazifani tayinlang. U bu vazifani hal qilishning eng oson yo'lini topadi.

190. Tekin pishloq faqat qopqonda bo'ladi.

191. Agar inson qaysi portga suzib bormoqchiligini bilmasa, uning yelkanlari uchun hech qanday shamol qulay emas.

192. Ko'p sonli kuchsiz zarbalar kun kelib daraxtni yiqitish uchun yetarli kuchga ega.

193. Odamlar uchun toifaga bo'linadi: Ko'radiganlar, ko'rsatilganda ko'radiganlar va ko'rmaydiganlar.

194. Sukutning ham ovozi bor, faqat uni eshitadigan yurak kerak.

195. Agar inson hech qachon hech kimga ishonmayman desa, bilingki u qachonlardir qaysidir insonga keragidan ortiq ishongan.

196. Aldanishning eng yomon tomoni- bu haqiqatga loyiq emasligingizni bilishdir.

197. Aqilli odam o'zi haqida 3 narsani sir saqlaydi: eng chuqur qo'rquvini, eng katta orzusini va boyligining miqdorini.

198. Hayot shaxmat o'yini kabilir. O'yin tugagach shoxlar ham piyodalar ham bir qutiga tushadi.
199. Erkak har kuni o'zidan bir tomchi hasislikni siqib chiqarishi kerak.
200. Atrofdagilarga quloq solma, yuragingga quloq sol.
201. Sukut va tabassum-ikki kuchli quroldir. Tabassum-bu ko'plab muammolarni hal qilishning bir usuli, sukut esa ularni chetlab o'tishga yordam beradi.
202. Eng katta muammolar ko'p gapirganing sababli sodir bo'ladi.
203. Hech qachon qarz so'rama, chunki qarz faqat boshqa qarzni keltirib chiqaradi.
204. Hayotingni boshqalarning hayoti bilan solishtirma. Shunchaki ertangi hayoting kechagidan yaxshiroq bo'lishiga intil.
205. Hech qanday afsus o'tmishni o'zgartira olmaydi va hech qanday havotir kelajakni o'zgartira olmaydi.
206. Bajarishga ko'zing yetmayotgan va'dani berma. Shunda o'zingni ham, qarshingdag insonni ham qiynamaysan.
207. Zaiflik bildirmagan holda muloyim bo'l. Dag'allik bildirmagan holda kuchli bo'l.
208. Ayolni boshingga chiqarsang, uni senga past nazar bilan qarashdan boshqa chorasi qolmaydi.
209. Bu dunyoda ikki insonning o'rtasidagi turishdan-da murakkab vazifa yo'q.
210. Erishmoqchi bo'lgan yutuqlaring haqida emas, erishgan yutuqlaring haqida gapir.
211. Hech qaysi insonga bog'lanib qolma. Insonlar o'zgaradi va bir kun kelib eng yaqin do'sting ham begonaga aylanishi mumkin.
212. Muhim ishlarda hissiyotlarga tayanib qaror qabul qilma.
213. Shuni unutmagin-ki, mag'lubiyatlar g'alabalardan ko'ra yaxshiroq saboq beradi.
214. Bir yildan keyin orzularing uchun harakatni bugun boshlaganing uchun o'zingdan minnatdor bo'lasan.
215. Oylik daromadning kamida 30% ni kelajaging uchun saqlab qo'y, bu senga aniq kerak bo'ladi.
216. Keyinchalik yolg'onga olib keluvchi hech qanday ishga aralashma.

217. Yorug'lik tezligi ovoz tezligidan balandroq. Shu sabab ba'zilar gapirishni boshlaguniga qadar, porloq shaxslardek ko'rinadilar.
218. Ko'p o'ylama, senda puxta reja bo'lishi kerak, ammo ortiqcha mulohazalar seni chalkashtiradi va qo'rquvga sabab bo'ladi.
219. Har kuni o'zingga aytadigan eng katta yolg'on bu- "hali vaqt bor"
220. Shunday payt keladiki, har bir bola uni hech kim hayot tashvishlaridan quqarmasligini tushunib yetadi vaaynan shu payt erkakka aylanadi. Lekin ba'zi bolalar bungacha yetib kelmaydilar va bir umir bola bo'lib qoladilar.
221. Insoning haqiqiy yuzi unga foydasi temaydigan odamlarga bo'lgan munosabatida namoyan bo'ladi.
222. Qanday vaziyat, vaqt va makonda bo'lishingdan qat'iy nazar, qanday bo'lsang, shundayligingcha qol.
223. Sening nasibang birovga o'tib ketmaydi va birovning haqqi senga foyda keltirmaydi.
224. Pulga to'ymaydigan ayoldan va ayolga to'ymaydigan erkakdan ehtiyot bo'l.
225. Agar kimnidir sog'ingan bo'lsang uni hayotingga qaytarishga shoshilma. Sog'inch-bu seni parchalovchi va kuchliroq qilib qayta tiklovchi jarayondir.
226. Yaxshi do'st ortingdan yaxshi gapiradi, yuzingga esa rostini aytadi.
227. Odamlar ko'pincha senga o'zining ehtiyojlari va ochko'zligi darajasiga qarab munosabat ko'rsatishadi.
228. O'tmishing haqida hech kimga gapirma, boshingdan o'tganlarning asl mohiyati va sabablarini sendan bosha hech kim tushuna olmaydi. Hatto-ki bu ma'lumotlarni senga qarshi ishlatuvchilar ham topiladi.
229. Yig'laging kelsa yig'la. Bu- dardni ichingga yutishdan ko'ra yaxshiroq.
230. Bu dunyoda hech narsa siqilishga arzimaydi.
231. Vaziyat qanchalik qiyin chalkash tuyulmasin, uning mantiqiy yechimi har doim topiladi.
232. Qiyin ish-bu o'z vaqtida bajarilmagan oson ishlarning yig'indisidir.
233. Samimiylik va vafo-arzon odamlardan kutish kerak bo'lmagan qimmat sovg'alardir

234. Senga berilmagan savolga javob qaytarma, sendan yordam so'ramaganlarga yordan berishga shoshilma.
235. Biz yo o'zimizni zaif qilamiz yoki o'zimizni kuchli qilamiz. Ish hajmi bir xil.
236. Tog'ri qarorlar-tajribaning natijasi. Tajriba esa- notog'ri qarorlarning natijasi.
237. Band bo'l. Bu dunyodagi eng arzon dori va eng samaralilaridan biri.
238. Baxt-muammolarning yo'qligidan emas, balki muammolarni hal qila olish matonatidan paydo bo'ladi.
239. Ahmoqlar bilan bahslashma, ular seni o'z darajasiga tushirib, so'ngra bahsda g'olib bo'lganlarni e'lon qiladilar.
240. Bir eshik yopilganida, darhol ikkinchi eshik ochiladi. Ammo biz yopilgan eshikdan nigoh uzolmay, ochilgan eshikni payqamaymiz.
241. O'z tananga g'amxorlik qilishni unutma, u sen bilan bir umir qoladi.
242. Erkak malomatga loyiq eng yomon sifati-rashkchi bo'lmaganidir.
243. Hayot sinovlari qarshisida chekinma, ular senga eng yaxshi saboqlarni beradi.
244. yaxshi bola bo'lishni bas qil. G'azab va musht ham o'rinli vaziyatlarda ishga solinishi lozim.
245. Ko'rsatganingdan ko'prog'iga ega bo'l, bilganingdan kamrog'ini gapir.
246. Ba'zida birortanlov qarshisida, hali o'ylashga ham ulgirmagan payting, ichingdagi ovoz nima qilish kerakligini aytadi. Ko'nglingga quloq sol, u senga pand bermaydi.
247. Notanish kimsaga ishonma. Ishonch shunchaki berib qo'yilmaydi.
248. Umid-bu strategiya emas.
249. Boshqalar qila olgan ishni sen ham qila olasan. Ammo boshqalar qila olmadi degani bus en ham qila olmaysan degani emas.
250. Mayda xarajatlardan ehtiyot bo'l, kichik teshik katta kemani cho'ktirishi mumkin.
251. Ko'zlagan maqsadinga erisha olmaganda, boshqalarni ayiblab, qiyin zamondan shikoyat qilib, ma'suliyatdan qochadigan nodon kimsa bo'lma.
252. Jismonon kuchli bo'lishga intil va tafakkuring oydinlashganini sezasan.

253. Muvaffaqiyatga erishish uchun do'stlik kerak. Misli ko'rinmagan muvaffaqiyatga erishish uchun esa dushmanlar kerak.
254. Har bir hodisadan xayr izlashni va har bir insondan yaxshi sifatlarni izlashni odat qil.
255. Jiddiy gapdan so'ng hazillashdim degan inson aslida haqiqatni gapirgan bo'ladi.
256. Qanchalik yaxshi bo'lmagin, baribir kimningdir hikoyasida yomon inson bo'lasan.
257. Odamlar sening muvaffaqiyatingni istashadi lekin ulardan o'zib ketishingni xohlashmaydi.
258. Baxtni uzoqdan izlama, u har doim sening o'zingda mujassam.
259. Sen buni sezmasliging mumkin ammo sevadigan odamlaring sening eng ojiz nuqtalaringdir.
260. Yaxshi narsalar sabr qilishni biladigan va qiyinchilikni boshidan o'tkazadigan odamlargagina keladi. Bu yo'lda ko'p vaqt ketishi va yo'l og'ir tuyulishi mumkin, ammo natija hammasiga arziydi.
261. Yomon kunlar aslida foydali, ular senga qaysi narsalarning qadriga o'z vaqtida yetish kerakligini ko'rsatib qo'yadi.
262. Boyliging, yoshing va holatingdan qat'iy nazar, barcha bilan hurmat saqlagan holda muloqot qil.
263. Muloqat vaqtida doimo qarshingdagi odamning ko'zlariga qara va uning ko'z o'ngida hurmating va mahobating oshib borayotganini sezasan.
264. Duch kelgan narsani yegandan ko'ra, och qolgan abzal va men hozir ovqat haqida gapirmadim.
265. Dunyo ko'zingga tor ko'rinib ketgan paytlarda mozorlarni sayr qil. Qalbing ancha taskin topadi.
266. Sen xavotir oladigan hodisalarning katta qismi hech qachon ro'y bermaydi.
267. Qo'lingdan kelganini bajar, qolganini taqdirga qo'yib ber.
268. G'oyalar yoki harakat g'alabaga olib kelmaydi. Faqat g'alabalar g'alabaga olib keladi. Shu sabab sen har kuni kichik bir g'alabaga erishishing lozim.
269. Daromad manbaying bitta bo'lsa, hayoting unchalik ham qulay bo'lmaydi. Boshqa daromad manbalarini ham topishing lozim.

270. Muammoni oldina olish uchun qilingan bir gramm harakat muammoni yechish uchun sarflangan bir tonna mehnatdan ustun.
271. Saxiy bo'lish yaxshi, ammo hamma narsaning ham chegarasi bor. Odamlar oldidan oqqan suvni qadriga yetmasliklarini unutma.
272. Dushman yiqilgan payt shafqat qila ko'rma. Zero u kuchga to'lgan payt senga shafqat qilmaydi.
273. O'z hayoting hikoyasini yozar ekansan, qalamni aslo boshqa birovga berib qo'yma.
274. Samimiy kulgu va to'yimli uyqu har qanday qalb yaralarini davolaydi.
275. Jarohatlaringni donolikka yalantir.
276. Chaqirilmagan joyga borma, taklif qilinmagan dasturxonga qo'l uzatma.
277. Tavakkal qilishdan va yangi narsalarni sinab ko'rishdan hadiksirama. Bu qisqa umrni qo'rqib yashash yaramaydi.
278. Orqaga faqat bir vaqtda qarash mumkin, u ham bo'lsa qancha yo'lmi bosib o'tganingni ko'rish uchun.
279. O'zing hal qila oladigan muammo haqida boshqalarga shikoyat qilma.
280. Vafodarligingni qullikka aylanishiga yo'l qo'yma.
281. Hech kimga hech narsani isbotlashga urinma, odamlar baribir o'zi istagan narsanigina ko'radilar.
282. Inson avvaliga pul toppish uchun sog'ligini qurbon qiladi, Keyin sog'ligini tiklash uchun pul sarflaydi.
283. Shu bilan birga u kelajagi haqida shunchalar qayg'uradiki, hech qachon hozirgi kundan zavqlanmaydi.
284. U hech qachon o'lmaydigandek yashaydi va o'layotganida hech qachon yashamaganiga afsuslanadi.
285. Umring mobaynida seni orzularning uchun borayotgan yo'lingdan to'xtatmoqchi bo'lganlar ko'p uchraydi.
286. Bunga e'tibor berma. Shunchaki davom et.
287. Odam o'qdek to'g'ri bo'lishi mumkin lekin shunda ham uning tanqidchilari bo'ladi.

288. Oliyjanob inson o'ziga nisbatan talabchan bo'ladi, pastkash inson esa boshqalarga nisbatan.
289. Bir ishni qilib afsuslanish, o'sha ishni qilmay ikki marta afsuslanishdan ko'ra yaxshiroq.
290. Haqiqiy ulug'likning iptidosi- o'z zaifligingni anglashdir.
291. Aqlli insonlar hafa bo'lishmaydi, ular shunchaki hulosa chiqarishadi.
292. G'aming oshsa, daryo yoqala, shodlik oshsa mozor yoqala.
293. Sababsiz kulma, maqsadsiz yurma, o'zing uchun ahamiyatli bo'lmagan narsalar haqida savol berma.
294. Ko'tarilib ketsang do'stlaring seni kim ekanligingni anglashadi. Yiqilganingda esa sen do'stlaring aslida kim ekanligini anglaysan.
295. Buzilgan soat ham kuniga ikki marta to'g'ri vaqtni ko'rsatadi.
296. Aytmagan so'zingni-hokimi, aytgan so'zingni-asirisan.
297. Xatolar qo'rqinchli emas. Asosiysi har safar yangi narsada xato qilish.
298. Bazmga begonalar yig'ilishadi, azaga esa-yaqinlar.
299. Yurgan yo'lingda qiyin bo'liyaptimi, demak tepalikka chiqiyabsan.
300. Agar daraxtni kesish uchun 8 soat vaqtim bo'lsa, 6 soatini bolta charxlashga sarflagan bo'lardim.
301. Hatti harakati hissiyotlarga bog'liq bo'lgan insonga muhim ishni topshirib bo'lmaydi.
302. Buyuk maqsadlar qo'rqqoq qalblarda yashmaydi.
303. Inson orzu qilishdan to'xtagan kuni-halok bo'ladi.
304. O'z nafsini yengan odam-barcha dushmanlarini yakson qilgan odamdan kuchliroqdir.
305. Urinishlarni to'xtatmaydigan odam uchun ilojsiz narsaning o'zi yo'q.
306. Men ikki mingta noto'g'ri yechimni topdim. Endi faqat bitta tog'ri yechimni toppisl qoldi.
307. Bu hayot-kimgadir dushmanlik qilish uchun judayam qisqalik qiladi.

308. Muammolarni hal qil yoki ularni unut, lekin hech qachon muammo bilan yashama.
309. Faqat ikki narsa cheksizdir: Koinot va insonning ahmoqligi.
310. Tavakkal qilmaslik-tavakkal qilishdan ko'ra 100 barobar ko'proq xavf tug'diradi.
311. Men 1000 ta usulni 1 martadan mashq qilgan odamdan qo'rqmayman. Men 1 usulni 1000 marta mashq qilgan odamdan qo'rqaman.
312. Sensiz yashay olmaydigan insonlarning qadriga yet va sensiz ham baxtli insonlarning ortidan quvma.
313. Kishilarga ma'lum bo'lmasa, ham, haqiqat-haqiqatdir, ko'r-ko'rmasa ham, kunduzi kunduzdir.
314. Yo asling kabi ko'rin yo ko'ringaning kabi bo'l.
315. Yaxshi do'sti bor insonning oynaga ehtiyoji yo'qdir.
316. Kecha aqlli edim, dunyoni o'zgartirmoqchi bo'ldim. Bugun donoman, o'zimni o'zgartiriyapman.
317. Cho'ntagi boy, ruhi qashshoq bo'lgan insonlarning holi juda jirkanch. Chunki ular har narsaning narxini bilishadi, ammo qadrini bilishmaydi.
318. Donodan kelgan jafo nodondan kelgan vafodan yaxshidir.
319. Ko'z Yoshi-ayolning tuzog'idir.
320. Hayot uyqudir, o'limdan uyg'onar inson. Sen shoshil, o'lmasdan avval uyg'on.
321. Javob bermaslik ham o'ziga hos javobdir.
322. Har narsaga siqilma ey ko'ngil, nab u dardlar mangudur nab u umr.
323. Yiqildi deb o'ylamasinlar, cho'kdi deb tushunmasinlar. Biz faqat boshqa bir bahor uchun yaproqlarimizni to'kdik xolos.
324. Noumid bo'lma, oyog'ingga botayotgan tikonlar, sen izlagan gulning-darakchisidir.
325. Qur'onga ko'zing bilan boqsang, yozuvni ko'rasan. Aqling bilan qarasang, ilmni ko'rasan. Qalbing bilan boqsang, ishqni ko'rasan.
326. Qumning bir zarrasiman, ammo bepayon cho'lning dardini ortmoqlab yuribman.
327. Bir narsani istamoqchi bo'lsang insondan istama. Zero bersa minnatdir, bermasa zillatdir. Allohdan istagingki, bersa ne'matdir, bermasa hikmatdir.

328. Ko'chaning daydi itiga xoh oltindan, xoh yungdan tasma taq, baribir ko'cha itichali qolaveradi.
329. So'z ko'payganda, maqsad unitiladi.
330. Sajdaga o'tirgan har bir inson, taxtda o'tirgan har qanday podshohdan bahtli.
331. Siz haqingizda yomon gumonga borgan kimsa sizni ko'zi bilan tanibti, qalbi bilan emas.
332. Shamdek yosh to'k, ko'mgil uying charog'on bo'lsan.
333. Ming yil o'qisamu, mendan nima bilding deb so'rasalar, haddimni bildim deyman.
334. Aql haj qilish uchun tuyani topguncha, muhabbat ka'bani bir marta aylanib bo'ladi.
335. Sizni ranjitganlarga hali ham salom berayotgan bo'lsangiz, bu vijdoningizni sadaqasidir.
336. Inson kulishi ila tarbiyasini, kulgan narsasi ila saviyasini ko'rsatadi.
337. Bir gunox qildingmi, ortidan darov tavba qil. Inson suvga tushgani uchun emas, suvdan chiqa olmagan uchun bo'g'iladi.
338. Qandat o'lishni istayotgan bo'lsang, ana o'shanday yasha. Qanday tirilishni istayotgan bo'lsang, ana o'shanday o'l.
339. Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun uch narsa kerak: diqqat, intizom va harakat
340. Qo'shinlarga tuzoq qo'yish, arslonlarga yarashmaydi.
341. Shaxmat piyoda yo'lga chiqib, oxirida vazir bo'ladi.
342. Afzallik istasang, hech kimdan afzallik da'vo qilma, mum va malham bo'lgan u jarohat bo'lma.
343. Tiliga hokim bo'lmagan insondan-do'st, ko'ziga hokim bo'lmagan insondan yor chiqmas.
344. Odam borki dengizlarga qonmas, odam bo'ladiki bir tomchi suv bilan kifoyalanadi.
345. Oddiy fikrla, oddiy qabul qil va oddiy yasha. Chunki haqiqat ham juda oddiydir.
346. Barcha yaxshi ishlar sabrdan keyin keladi.
347. O'limdan so'ng meni qaro yerdan emas, ma'rifatli insonlarning qalbidan izlang.
348. Hirs ifloslikni ham chiroyli qilib ko'rsatadi.

349. Ey ko'ngil ibrat ol, boq har tushgan yaproqqa, u ham avval ko'kdan boqardi tuproqqa.
350. Baxtli oila qurishning ikki sharti border: yaxshi turmush o'rtog'ini tanlay tanlay bilmoq va yaxshi turmush o'rtoq bo'lmoq.
351. Do'st oltin kabidir. U olov ichida sof holiga keladi.
352. Mehmon keladigani kabi uyungni, o'lim keladigan kabi qalbingni toza tut.
353. Har kayfu-safo, balki, u bir onlikdur. Nafrat va kin oqibati pushaymonlikdur. Har jonzot uchun border o'lim, inson ham o'lur. Lekin asl o'lmaydigan insonlikdur.
354. Yodingdami sen tug'ilgan on, hamma xandon edi sen esa giryon. Shunday yashaginki ketar chog'ingda hamma giryon qolsin, sen ketgin xandon.
355. Bulbul yo'q maskanda qurbaqa ham hushovoz sanalur.
356. Haqiqatni anglay olmasang uni yolg'on deb atama.
357. Haq olinur, berilmas.
358. Och insonga baliq ber va u bir kun to'q yashaydi. Unga baliq ovlashni o'rgat va u bir umr to'q yashaydi.
359. Hech qachon shogirdinga siringni ochma, zero uning boshqa ustozlari ham bo'lishi mumkin.
360. Skut-gapirishdan ko'ra ko'proq kuch talab qiladi.
361. Dardimni aytib faqat g'am orttirdim. Yalinib faqat dushman orttirdim.
362. O'z to'ningga solsang ham yeti yuz yamoq, o'zga to'nin so'ragandan yaxshiroq.
363. Vahima bu- dardning teng yarmi. Hotirjamlik bu- sog'liqning teng yarmi. Sabr bu- davoning teng yarmi.
364. Tikanlarga teginmasdan, atirgulni uzib bo'lmas.
365. Agar ayol erining ishlarini o'z qo'liga olsa, oila bahtli bo'ladi. Lekin agar erkak hotinining vazifasini bajarsa, oila barbod bo'ladi.
366. Qorong'uda qolsang, soyang ham seni yolg'iz tashlab ketadi.
367. Tog' tepasidagi qoyalarni ko'chirish-minnat eshitish yukidan yengilroqdir.

368. Kekkayganga kekkaygin boshing ko'kka yetguncha. Egilganga egilgin boshing yerga tekkuncha.
369. Yaxshilarning xatosi-barchani o'zlari kabi yaxshi deb bilganlaridir.
370. Agar o'tmish chaqirsa, javob qilmang. Uni sizga aytadigan yangi gapı yo'q.
371. Kitob sotib olish mumkin lekin bilimni emas. Dori sotib olish mumkin lekin sog'liqni emas. Mansabni sotib olish mumkin lekin hurmatni emas.
372. Agar o'zbeklar nahorgi oshda birlashganidek boshqa ishlarda ham birlashganida, bu dunyoda ulardan kuchliroq millat bo'lmas edi.
373. G'azabda baqirgan insondan qo'rqma, u beozordir. G'azabda sukut saqlagandan qo'rq, u xavflidir.
374. Dushmanning eng katta hiylasi- uni do'st tutinganidir.
375. Oddiy fikrla, oddiy qabul qil va oddiy yasha chunki haqiqat ham juda oddiydir.
376. Inson ongi orqali qabul qilgan va anglay olgan narsalarini qo'lga kiritishga qodir.
377. Vaqtingiz chegaralangan, uni boshqalarning hayoti bilan yashashga sarflamang.
378. Muvaffaqiyatga erishish uchun emas, hayotingizni mazmuga ega bo'lishi uchun harakat qiling.
379. 100% holatlarda rejalashtirilmagan urinishlar muvaffaqiyatsiz yakun topadi.
380. Maqsadingizning aniqliligi barcha yutuqlaringizning asosiy nuqtasidir.
381. Hayot bus sen boshqa rejalariningni jonli amalga oshirayotganingda ro'y beradigan holat.
382. Biz o'ylaganimizga aylanamiz.
383. 20 yildan so'ng qilgan ishlaringizga nisbatan qilmagan ishlaringiz haqida afsuslanasiz. Shuning uchun shubxangizni yo'qoting. Xavfsiz orolingizni tark etib, yelkanlaringiz orqali shamolni ishlating. Izlaning. Orzu qiling. Oching.
384. Hayotingiz 10% siz bilan sodir bo'layotgan narsalarga bog'liq, 90% esa sizning bu hodisaga bo'lgan munosabatingizga bog'liqdir.
385. Agar siz har doimgi ishingizni qilsangiz, har doimgi natijani olasiz.
386. Daraxtni ekish uchun eng qulay vaqt 20 yil oldin edi. Keyingi eng qulay vaqt esa bugun.

387. Kutmang. Vaqt hech qachon qulay bo'lmaydi.

388. Men sharoitim kemasi emasman, men qarorlarim kemasiman.

389. Hamma bolalar rassom, lekin masala shundaki katta bo'lganda ham shunday bo'lishi kerak.

390. Agar qirg'oqni tark etishdan qo'rqsang, hech qachon ummonni zabt etolmaysan.

391. Bizda ikki yo'l mavjud, birinchisi shunchaki yashash, ikkinchisi esa o'z hayotimiz va taqdirimizni kashf etish.

392. Agar nimagadir qodirman deb o'ylasangiz haqsiz, agar siz nimagadir qodir emasman desangiz unda ham haqsiz.

393. Hayotingizda 2 muhim kun bor. Birinchisi tug'ilgan kuningiz, ikkinchisi esa nega tug'ilganingizni anglagan kuningiz.

394. Eng yaxshi qasos bu katta muvaffaqiyatdir.

395. Ko'p holatlarda odamlar motivatsiya ko'pga yetmaydi deyishadi, lekin bu ertalabdan uyg'otadigan dushda ham shunday. Shuning uchun uni har kuni qabul qilish kerak deb tavsiya qilinadi.

396. Agar tanqiddan qochmoqchi bo'lsangiz hech narsa qilmang, hech narsa gapirmang va hech kim bo'lmang.

397. To'siqlar-siz maqsadingizdan uzoqlashganingizda ko'rinadigan narsadir.

398. Sizning asosiy vazifangiz bu o'zingiz xohlagan inson bo'lishdir.

399. Urzularing sari ishonch bilan qadam bos. O'zing yashamoqchi bo'lgan hayot bilan yasha.

400. Muvaffaqiyatli odamlar boshqalarga yordam berishni imkonini izlashadi, muvaffaqiyatdan yiroq insonlar esa "menga bundan nima foyda bor?" degan savolni berishadi.

401. Qo'lingdan kelishiga ishonsang, marrani yarimiga yetgan bo'lasan.

402. Siz orzu qilayotgan hamma narsa qo'rquvingizni ortida yashiringan.

403. Biz qorong'udan qo'rqadigan bolani kechira olamiz, hayotning chin fojeasi esa yorug'likdan qo'rqadigan katta odamlardir.

404. Agar siz ishonishni boshlasangiz, hamma narsaning iloji bordek tuyiladi.

405. Qo'lingda nima borligidan va qayerda ekanligidan qat'iy nazar bajar.
406. 7 marta yiqilsang, 8 marta tur.
407. Baxtga yetkazadigan bir eshik yopilsa-boshqasi ochiladi, lekin biz yopilgan eshikka shunchalik termulamizki, ochig'iga etibor ham bermaymiz.
408. Go'zallik har narsada bor, lekin buni ko'rish hammaga ham nasib etmagan.
409. Yaxshiyamki, dunyoni o'zgartirish uchun hech kimga bir daqiqa ham berilmagan.
410. Agar men o'zligimni tashlasam, bo'lishni xohlaganimga aylana olaman.
411. Baxt tayyor holda bo'lmaydi. U sizning harakatlaringiz orqali shakillanadi.
412. Ko'plarimiz orzularimiz bilan yashamaymiz, chunki biz qo'rquvlarimiz bilan yashaymiz.
413. Qiyinchiliklar hayotimizni qiziqarli qiladi, ularni yengish esa hayotimizga ma'no olib keladi.
414. Nimanidir boshlashni eng oqil yo'li gapirishni bas qilib, harakatni boshlash.
415. Cheklovlar faqat ongimizda mavjud, lekin biz tasavvurimizni ishga solsak, imkoniyatlarimizni chegarasi bo'lmaydi.
416. Men testdan yiqilmadim, men uni xato yechishning 100 ta usulini topdim xolos.
417. Hech qachon adashmagan inson, hech qanday yangi narsani qilishga harakat qilib ko'rmagan.
418. G'oyalar quyonlarga o'xshaydi. Ularni boqishni o'rganish uchun 2 ta quyonning o'zi kifoya, lekin ular yaqinda podaga aylanadi.
419. Qo'rquvdan o'lganimdan ko'ra ishtiyoqdan o'lganim afzalroq.
420. Agar farzandlaringiz yaxshi inson bo'lib ulg'ayishini istasangiz, ularga hozirgidan 2 barobar ko'proq vaqt va 2 barobar kamroq pul sarflamang.
421. Orzularingiz ustida ishlang, aks holda o'zga orzular ustida ishlash uchun yollanasiz.
422. Meyordan chiqmaslik bilan ildamlik qilib bo'lmaydi.
423. Hayollaringizni o'zgartiring, shunda hayotingiz ham o'zgaradi.
424. Inson o'z aqli bilan erishishi va qabul qilishi mumkin bo'lgan barchasiga erisha oladi.

425. Vaqtingiz cheklangan, uni o'zgalarning hayoti bilan yashab, bekorga sarflamang.
426. Muvaffaqiyatga erishishga emas, hayotingizda mazmun bo'lishiga intiling.
427. 100% holatlarda amalga oshirilmagan harakatlar muvaffaqiyat bilan tamomlanmaydi.
428. Maqsadning aniqligi barcha yutuqlarning tayanch nuqtasi hisoblanadi.
429. Hayot- bu sen jo'shqinlik bilan boshqa rejalarni qurayotgan mahal, sen bilan sodir bo'layotgani.
430. Biz o'ylagan narsa bo'lamiz.
431. Yigirma yil o'tgach, siz qilgan ishlaringizga qaraganda, qilmagan ishlaringiz haqida afsuslanasiz. Shuning uchun, aslo shubhalanmang. Xavfsiz vat inch qirg'oqdan nari suzil keting. Yelkanlaringiz bilan hamroh shamolni ushlab oling. O'rganing. Orzu qiling. Kashf eting.
432. Agarda siz doimo qilgan ishlarni qilishda davom etsangiz, unda siz doimo ega bo'lgan narsalarga ega bo'lasiz.
433. O'rganib chiqilmagan hayotni yashashning hojati yo'q.
434. Kutmang. Vaqt hech qachon qulay bo'lmaydi.
435. Men vaziyatlarim natijasi emasman. Qarorlarim natijasiman.
436. Qirg'oqni ko'zdan qochiradigan darajada mard bo'lmasang, ummoni hech qachon suzib o'tolmaysan.
437. To'siqlar- siz maqsaddan ko'zingizni olib qochgan paytda ko'rmaydigan qo'rqinchl narsalar. Bu hayotdagi yagona maqsadingiz- siz qaror qilgan inson bo'lish.
438. Orzularing ketidan dadillik bilan ergash. O'zing istagan hayot bilan yasha.
439. Umid qilamanki, hayotimning oxiriga kelib, olloh bilan uchrashganimda mening qo'ldan boy berilgan iste'dodlarim bo'lmaydi va men: Sen menga taqdim etgan barcha imkoniyatlardan foydalandim, deb ayta olaman.
440. Muvvaffaqiyatli insonlar doim boshqalarga yordam berish imkoniyatini qidradi, muvaffaqiyatdan yiroq bo'lganlar: Shaxsan men uchun bundan foyda nima?, deb o'zlariga savol beradi.
441. Qo'lingdan kelishiga ishon- va sen yo'lning yarmini bosib o'tgan bo'lasan.

442. Siz orzu qilgan barcha narsa qo'rqinchingizning boshqa tomonida joylashgan.
443. Siz umid qilishni boshlaganingizda, har qanday narsa mumkin bo'lishining ehtimoli bo'ladi.
444. Senda bor bo'lgani bilan, sen bo'lgan joyda qo'lingdan kelganini qil.
445. Men hozir kim ekanligimni qo'yib yuborganimda, kim bo'lishim mumkinligiga aylanaman.
446. Ko'pchilik insonlar o'z orzulari bilan yashamaydi, chunki ular o'z qo'rqinchlari bilan yashaydi.
447. Bironta ishni boshlashning eng yaxshi yo'li: gapirishni bas qilib, nihoyat ish qilishni boshlash.
448. Cheklovlar faqat bizning ongimizda mavjud. Biroq biz tassurotimizni ishga solsak, bizning imkoniyatlarimiz cheksizga aylanadi.
449. Zerikishdan o'lganimdan ko'ra, extirosdan o'lganim yaxshiroq.
450. Hayollaringizni o'zgartiring va siz o'z dunyoingizni o'zgartirasiz.
451. Kimning kulgusi ko'paysa hurmati kamayadi.
452. Meni Alloh yaratgandek qabul qiling. Agar meni yoqtirmasangiz, dunyo yaxshi odamlarga to'la.
453. Sabr bo'yin egish emas, kurashish demakdir!
454. Odam o'qdek to'g'ri bo'lishi mumkin, lekin shunda ham uning tanqidchilari bo'ladi
455. Gunohdan saqlanish pushaymonlik azobidan osonroqdir.
456. Og'ir hayotga o'rganing, chunki hashamat abadiy emas.
457. Aldov orqali zafar quchgan kishi g'olib emas.
458. Namozingni mahkam tut, chunki uni yo'qotsang, qolgan hamma narsani yo'qotasan
459. Dunyoni sevadigan olimning ilmiga shubha bor.
460. Kamchiliklarni ko'rsatadigan kishi- do'stingdir. Seni maqtagan esa-jallodingdir.
461. Xotinlarga itoat etmang. Ularga qarshilik qilib turmasangiz uydan Baraka ketadi.
462. Gunoih qilib tavba qilgan kishilar bilan o'tiring, chunki ular eng yumshoq yurakka egadirlar.

463. Haqiqat sizni o'dirsa ham un I mahkam tuting.
464. Erkak kishi qo'shiq aytib raqsga tushganiga qadar erkakligini saqlab turadi.
465. Taqvo bu- o'zingni boshqalardan ustun qo'ymasligingdir.
466. Biror kishini mag'lub etishning eng yaxshi usuli- uni hushmuomilalik bilan mag'lul etishdir.
467. Harakatning mezoni bugungi ishni ertasiga qoldirmaslikdir.
468. Odamlarning eng baxtlisi, uning qaromag'idagi odamlar u tufayli baxtiyor bo'lganlaridir va eng baxtsizlari- qaramog'idagi odamlar u tufayli baxtsiz bo'lganlaridir.
469. Yaxshi do'stlarni ko'paytiring. Ular kenglik vaqtida sizga ziynat, sinov vaqtida esa Zahira bo'ladi.
470. Maslahat bermaydigan odamlarda yaxshilik yo'q va nasihat eshitishni yoqtirmaydigan odamlarda ham yaxshilik yo'q.
471. Zolimni kechirish, mazlumga zulm qilishdir.
472. Agar insonda to'qqiz ta yaxshi, bitta yomon odat bo'lsa, o'sha yomon odat barcha yaxshilarni yo'q qiladi.
473. Hech qanday pushaymonlik o'tmishni o'zgartira olmaydi, va hech qanday tashvish kelajakni o'zgartira olmaydi.
474. Dunyo lazzatlaridan voz kechish inson qalbiga ham, vujudiga ham taskin beradi.
475. Men sukut saqlaganimdan hech qachon afsuslanmadim, Lekin gapirib qoyib ko'p marta afsuslandim.
476. Erkak xotini bilan yosh boladek bo'lishi kerak. Lekin ayoli unga muhtoj bo'lgan vaqtda erkak bo'lishi kerak.
477. Toki qalbing pok bo'lsa, rost gapirasan.
478. Kibrli olim bo'lmang, chunki takabburlikda ilm bo'lmaydi.
479. Yuragingizga yaqin bo'lmagan insonlardan uzoq yuring.
480. Erkakning g'azabda o'zini qanday tutishini ko'rmagunizcha uning axloqiga ishonmang.
481. Boshqalarga eslatayotganingizda, o'zing haqingda unutma.

482. Men qancha do'stlarni ko'rdim, sukutdan afzalroq do'st ko'rmadim. Qancha-qancha liboslarni ko'rdim, lekin taqvo libosidan afzal libos ko'rmadim. e mollarni ko'rdim, lekin qanoatdan afzal molni ko'rmadim. Qancha yaxshiliklarni ko'rdim, lekin nasihatdan afzalroq yaxshilikni ko'rmadim.

483. Bazan o'tmishi eng yomon bo'lgan odamlar, o'zlariga eng yaxshi kelajakni yaratadilar.

484. Har bir ayol, qanchalik kuchli bo'lishidan qat'iy nazar o'zidan kuchliroq erkakga bo'ysinishni xohlaydi.

485. Xotini uzoqdan, bog'ni yaqindan tanla.

486. O'z oilasini unitgan erkak haqiqiy erkak emas.

487. Men o'zim uchun xotin izlamayapman. Men bo'lajak farzandlarimga ona izlayapman.

488. Og'il bolani to'qchilik buzadi, qiz bolani yo'qchilik.

489. Ayolga ishonma va unga siringni aytma.

490. Ayol bahslashishning ikki usuli bor, ammo ikkalasi ham samarasiz.

491. Ba'azan muloyimlik-qo'rqqulikning alomati bo'ladi. O'rni kelganda g'azab ham qilish kerak.

492. Ayolning sodiqligi-erining hech narsasi yo'q davrida sinaladi. Erkakning sodiqligi-uning hamma narsasi bor davrida sinaladi.

493. Yigit kishi 4 narsada qiz boladan ustun bo'lishi kerak: Aqlda, bo'yda, nasl-nasabda va boylikda.

Qiz bola ham 4 narsada yigit kishidan ustun bo'lishi kerak: chiroyda, taqvoda, hayoda va fahm-farosatda.

494. Ayolni gapini eshit va teskarisini qil.

495. Ayollarga itoat qilmang. Agar ularga qarshilik qilib turmasangiz uydin Baraka ketadi.

496. Senga turli shartlarni qo'yadigan, o'zini ko'z-ko'z qilishga, yasan-tusanga muttalo bo'lgan, boshqalarning hayotiga havas qilib o'zinikiga solishtira beradigan ayoldan ehtiyot bo'lgan. Chunki u-sening kelajakdagi faqirligingdir. Ya'ni bunday johila ayol turli talablari bilan seni qashshoqlikka mahkum etadi.

497. Ayol kishi teskari magnitga o'xshaydi. Yaqinlashsang uzoqlashadi, uzoqlashsang yaqinlashadi.
498. Gulga keragidan ortiq suv quysang chirishni boshlagani kabi, bir insonni keragidan ortiq qadrlasang, u ham qutira boshlaydi.
499. Kim hiyonatni kechirsa, ikkinchi hiyonatga tayyor tursin.
500. Erkak kurashuvchan bo'lishi kerak, chunki ayol-qiyinchiliklar davrida taslim bo'lib ketadiganlarni emas, balki kuchli, jasur va qat'iyatlilarni tanlaydi.
501. Rashk arzon emas, u qimmat narsa. Agar kimdir sizni rashk qilayotgan bo'lsa, demak u uchun qadrlisiz.
502. Erkak ayoli bilan huddi yosh boladek bo'lishi kerak. Lekin xotini unga muhtoj bo'lgan payt erkak bo'lishi lozim.
503. Tog' tepasidagi qoualarni ko'chirish-minnat eshitish yukidan yengilroqdir.
504. Ayol bilan birgalikda hayot yaxshi bo'lishi shart. Yomon yashashni bir o'zim ham eplay olaman.
505. Xotini bor erkakni yo'ldan ozdira olasiz. Ma'shuqasini bor erkakni yo'ldan ozdira olasiz. Lekin sevgan ayoli bor erkakni yo'ldan ozdira olmaysiz.
506. Har qanday rishtalar uzulishi mumkin, faqatgina oilaviy rishtalar hech qachon uzilmaydi.
507. Har bir muhim ish allohga hamd aytish bilan boshlanmasa, oxiri kesikdir.
508. Jannat har biringizning poyabzali ipingizdan ham yaqindir. Do'zox ham shu kabidir.
509. Poklik iymonning yarimidir.
510. Bomdod namozining ikki rakat sunnati, dunyo va undagi narsalardan yaxshidir.
511. Dunyo mo'minning qamoqxonasi, kofirning esa jannatidir.
512. Kishi musulon birodarini past sanamog'I uning yomon ekaniga kifoya qiladi.
513. Agar odam bolasining bir vodiy tillasi bo'lsa, u kishi ikki vodiy tillasi bo'lishini istaydi. Uning og'zini qabr tuprog'idan boshqa narsa to'ldira olmaydi.
514. Alloh taolo bandasining tavbasidan sizlardan biringiz cho'lda yo'qolgan tuyasini topib olganidagi xursandchiligidan ham ziyoda shod bo'lur.

515. Bir necha odamni kuch bilan yengadigan odam kuchli emas, balki jahli chiqqanida g'azabini bosa oladigan odam kuchlidir.
516. Kim menga ikki jag'I va ikki oyag'I orasini saqlashga kafolat bersa, uning jannatga kirishiga kafolat beraman.
517. Agar kishi birodarini yaxshi ko'rsa, o'shani yaxshi ko'rishini bildirib qoysin.
518. Kuchli mo'min alloh taolaga kuchsiz mo'mindan mahbubroqdir. Har birlarida yaxshilik border. Senga foydasi bor narsaga haris bo'l. Allohdan yordam so'ra. Ojiz bo'lmagin.
519. Agar senga biror musibat yetsa, unday qilganimda bunday bo'lardi, demagin. Lekin allohning taqdiri, nimani xohlasa, o'shani qiladi, degin. Chunki "agar" so'zi shayton amali uchun yo'l ochadi.
520. Har bir ummatning fitnasi bordir. Mening ummatimning fitnasi mol-dunyodir.
521. Kim birodari obro'si to'kilayotganda uni himoya qilsa, alloh taolo qiyomat kunida o'sha kishining yuzini do'zaxdan himoya qiladi.
522. Munoffiqning alomati 3 tadir: Agar so'zlasa, yolg'on gapiradi. Agar va'da bersa, unga xilof qiladi. Agar omonat qo'yilsa, xiyonat qiladi.
523. Kimki insonlarga rahm qilmasa, alloh ham unga rahm qilmaydi.
524. Biror banda boshqa bir bandaning aybini dunyoda berkitadigan bo'lsa, alloh taolo qiyomat kunida uning aybini berkitadi.
525. Mo'minlarning imon jihatdan komilrog'i xulqi yaxshi bo'lganlaridir. Sizlarning yaxshilaringiz ayollar bilan yaxshi bo'lganlaringizdir.
526. Dunyo o'zi bir matodir. Uning eng yaxshi matosi soliha ayoldir.
527. Gumondan chetlaninglar. Chunki gumon so'zlarning eng yolg'onidir.
528. Sizlarga ahli do'zox kimlar ekani haqida xabar beraymi? Ular qo'pol, dag'al, gerdayib yuruvchi mutakabbirlardir.
529. Albatta, alloh taolo muloyimdir va har bir ishda muloyimlikni yaxshi ko'radi.
530. Shubhali narsani shubhasiziga qo'y (ya'ni shubhali narsani tark etib, shubhasiz narsani ol).
531. Kishi boshqa bir kishini fosiq yoki kofir, deb so'kmasin. Chunki bu ayblar so'kilgar kishida bo'lmasa, so'kuvchining o'ziga qaytadi.

532. Hasaddan cheklaninglar. Chunki olov o'tin yoki o't-xashaklarni yeganidek, hasad ham yaxshi amallarni yeb bitiradi.
533. Albatta alloh taolo ota-bobalaringiz nomiga qasam ichishingizni man qilganlar. Kin qasam ichadigan bo'lsa, alloh nomi bilan qasam ichsin. Unday bo'lmasa, jim tursin.
534. Lazzatlarni ketkazuvchi o'limni eslashni ko'paytiringlar.
535. Kimki nafsi omon, xotirjam va jasadi salomat hamda huzurida bir kunlik rizqi bo'lsa, go'yoki dunyoni to'laligicha o'ziga bo'ysindiribdi.
536. Bank hisobingiz telefon raqamingizga o'xshamagunicha rivojlanishdan to'xtamang.
537. Har bir oilada kambag'alik zanjirini uzadigan shaxs bo'ladi. O'sha inson siz bo'ling
538. Hech qachon taslim bo'lmang. Bugun og'ir, ertaga bundan battar bo'lishi mumkin. Lekin undan keying kun albatta quyosh ko'rinadi.
539. Eng katta tavakkal- tavakkal qilmaslik. Bu- juda tez rivojlanayotgan zamonda muvaffaqiyatsizlik kafolatlangan yagona usul.
540. Xatolar qo'rqinchli emas, asosiysi yangi narsada xato qilish.
541. Iloji yo'q degan fikr sizni potesiyalingizni sindiradi. Buni qanday qilishim mumkin degan savol miyangizni maksimal darajada ishlashga yordam beradi.
542. Agar siz tanqid eshitishdan qo'rqsangiz, hech qachon yangi ish boshlamang.
543. Boylarning kichik televizori va katta kutubxonasi bor. Kambag'allarning esa kichik kutubxonasi va katta televizori bor.
544. Agar pulingiz kam bo'lsa biznes qilishingiz kerak. Agar pulingiz umumon bo'lmasa unda siz darhol biznes qilishingiz kerak.
545. Kichik o'lchamlar bilan o'ylaydigan inson katta ishlarni qila olmaydi.
546. Muammolarni hal qil yoki ularni unut. Lekin hech qachon muammo bilan yashama.
547. Har doim urinishdan to'xtamaydigan inson uchun ilojsiz narsaning o'zi yo'q.
548. Katta maqsadingni o'dirmoqchi bo'lsang, uni kichik fikrlaydiganlarga ayt.
549. Pul hayotdagi muhim narsa emas. Lekin bunday ahmoqana gapni aytishdan oldin o'sha pulni toppish kerak.
560. Aqilli o'quvchi hech qachon 5 baho uchun o'qimaydi. Sababi u baho hech narsani hal qilmasligini biladi.

561. Dunyoni o'zgartira olishga ishonadigan aqldan ozgan insonlar, oxir-oqibat buni uddalaydilar.
562. Yaxshi fikr yozib ol. Yaxshi fikr bo'lmasa, kitob o'qi.
563. Agar siz yangilik qilmoqchi bo'lsangiz, sizni noto'g'ri tushunishlariga tayyor turing.
564. Muvaffaqiyat- yomon o'qituvchi. U aqlli insonlarni hech qachon yutqazmayman deb o'ylashga majbur qiladi.
565. Xoldan toygunizcha ishlang. Boshqalar haftasiga 40 soat ishlasa, siz 100 soat ishlang. Shunda siz natijaga ikki yarim marta tezroq erishasiz. Boshqalar uchun bir yil kerak bo'lsa, siz 4 oyda natija ko'rasiz.
566. Qandaydir ko'ngilsizlik bo'lmasdan, hayotni yashab o'tish qiyin. Agar siz omadsizlikdan qo'rqib yashasangiz, aniq ko'ngilsiz voqeaga duch kelasiz.
567. Siz haqiqatdan ham odamlarga kerak bo'lgan mahsulot chiqarsangiz, pul albatta keladi.
568. Agar maqsadingiz bazida sizni havotirga solib asabiylashtirmasa, demak u yetarli darajada katta emas.
569. Yoshlarga maslahatim: 25 yoshgacha ko'proq xatolar qiling va bu haqida havotirlanmang. Asosiysi yiqilganingizda qayta tura olishingiz. Yiqilib-yiqilib o'rganing va bundan bahra oling. Siz bor yo'g'i 25 yoshdasiz.
570. Juda ko'pchilik muvaffaqiyatga yaqin qolganda qo'l siltaydi. Finishga bir metr qolganda poygadan chiqadi. Finish nuqtasiga ularni bir daqiqa ajratib turgan bo'lada.
571. Oxiratinga ziyon yetkazadigan darajada dunyoga berilma. Ammo insonlarga yuk bo'ladigan darajada dunyoni unitib qo'yma.
572. Ayolga ishonma va unga siringni aytma.
573. Boyliging miqdorini do'stu- dushmanga bildirma.
574. Kimga pand-nasihat qilsang, avvalo unga o'zing amal qil.
575. Foydayu-ziyoninga o'zingni urib obro'yingni to'kma.
576. Sabasiz kulma, maqsadsiz yurma, o'zing uchun ahamiyatsiz bo'lgan narsalar haqida savol berma.
577. Xokisor va kamtarin bo'l lekin o'zngni o'ta xor qilmaslikka intil.

578. Ahmoqlar bilan hamsuhbat bo'lma. Ikkiyuzlamachilarga aralashma.
579. Insonlarni kamsitib, ularga yuzingni burma va yer yuzida gerdayib biror qadam tashlama! Chunki alloh hech bir takabbur va maqtanchoq kimsani sevmas.
580. Odamlar chiroyli gaplari bilan fahrlanaversinlar, sen chiroyli sukuting bilan kifoyalan.
581. Do'stingni qiyin kunda sina, uning foydayu ziyonini imtihon qil.
582. Dunyo tubsiz dengizdir. Unda ko'plab odamlar g'arq bo'lgan. Sen o'zingga taqvodan kema yasab ol.
583. Xudodan qo'rqish, darvishlarga saxovat, dushmanlarga yumshoqlik, johillarga sukut, olimlarga tavoze qilish bilan yasha.
584. Xarjni kiringa qarab qil, hamma ishda o'rtacha yo'l tut.
585. Birovning uyiga kirganingda ko'z va tilinga ehtiyot bo'l.
586. O'zingga yoqmagan narsani birovga ravo ko'rma.
587. Hojatmand kishini noumid qaytarma, pastkashdan vafo kutma.
588. Jiddiy so'zni hazilga aralashtirib gapirma, o'zingdan kattaga hazil qilma.
589. Oz yeyish va oz gapirishga odatlan. Gapirsang so'zingni isboti bilan gapir.
590. Ig'vogar bilan suhbatdosh bo'lma. Yaxshi odamni g'iybat bilan tilga olma.
591. Libosingni va badaningni toza tut.
592. Xotinlardek yasanma, qoshu-ko'zing bilan imlab, chaqimlik qilma.
593. O'z noningni o'zgalar dosturxonida yema.
594. Mahalla boshida bekorchi va beboshlar bilan o'tirma.
595. Bolalaring nima desa, o'shani qilaverma.
596. Mehmoninga ish buyurma va uning huzurida birovga g'azabingni sochma.
597. O'tgan janjalni eslama, birovni hech kim oldida hijolat qilma.
598. O'lganlarni yomonlik bilan eslama, zero buning foydasi yo'q.
599. Allohni zikr qilayotgan qavmni ko'rsang, ular bilan birga o'tir. Chunki olim bo'lsang, ilminga foyda beradi, ilmsiz bo'lsang, senga ilm o'rgatadilar.

600. Yetti marta yiqilsang, sakkiz marta tur.
601. O'ylab- qaror qiling. Qaror qilgach- o'ylamang.
602. Chuqur daryolar jimgina oqadi.
603. Ikkita quyon ortidan birdaniga quvgan inson oxir—oqibat bitta ham quyonni tutolmay qoladi.
604. Nonushtani o'zing ye, tushlikni do'sting bilan ye, kechki ovqatni esa dushmaningga ber.
605. Ko'zlar qalbning ko'zgudagi aksidir.
606. Aqlli lochin tirnoqlarini yashiradi.
607. Ko'p sonli kuchsiz zarbalar kun kelib daraxtni yiqitish uchun yetarli kuchga ega.
608. Ichkilik insonning ichini ko'rsatadi.
609. O'zing haqingda yomon so'zlama. Zero ichingdagi jangchi buni eshitadi va zayiflashadi.
610. Bazmga begonalar yig'ilishadi. Azaga esa yaqinlar.
611. Ota-ona mehnat qilib, farzandlari hayotdan zavqlansa, nabiralar kambag'al bo'ladi.
612. Er va xotin-qo'l va ko'z bo'lishlari kerak: qo'l og'risa ko'z yig'laydi. Ko'z yig'lasa qo'l ko'z yoshlarni artadi.
613. Ketayotganlarni to'xtatma, kelayotganlarni haydama.
614. O'lim nima ekanligini aniqlash orqaligina hayot nima ekanligini tushunish mumkin.
615. Hatto ahmoqlarda ham kamida bir dona qobiliyati bo'ladi.
616. Haddan tashqari kamtarlik ortida mag'rurlik yashiringan.
617. Biror kishi qanday ekanligini bilmoqchi bo'lsang, uning do'stlariga boq.
618. O'n mingta askar topish, bitta general topishdan qiyinroq.
619. Qo'shningzni bog'i ko'zingizga har doim siznikidan ko'ra yashilroq bo'lib ko'rinaveradi.
620. Sovuq choy va sovuq guruchga chidash mumkin. Lekin sovuq nigoh va sovuq so'zga chidab bo'lmaydi.

621. Kambag'allikning uch sababi bor: dangasalik, baxillik va qarzdorlik.
622. Nodon xatosini oqlashga urinadi, dona uni tog'irlashga shoshiladi.
623. Yuragingizga ustozlik qiling, yuragingiz sizga emas.
624. Hech qachon "hech qachon" demang, chunki kunlar juda tez o'tadi va hech narsa o'zgarmas holda qolmaydi.
625. Agar daraxtni kesish uchun 8 soat vaqtim bo'lsa, 6 soatini bolta charhlash uchun sarflagan bo'lar edim.
626. Kamchiliksiz insonlarning ustunliklari ham juda kam bo'ladi.
627. Atirgul butalarida tikonlar borligidan shikoyatlar qilishimiz mumkin, yoki tikonli butada atirgul borligidan quvonishimiz mumkin.
628. Hayotingizni yillari muhim emas, balki shu yillar ichra o'tayotgan hayotingiz muhimdir.
629. Deyarli barcha insonlar qiyinchiliklarga bardosh bera oladi. Agar kimnidir aslida qanday insonligini bilmoqchi bo'lsangiz, unga kuch-qudrat berib ko'ring.
630. Men sekin yuraman lekin ortga qadam tashlamayman.
631. Agar muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsangiz, hech kim sizga ishonmagan vaqtda ham o'zingizga ishonishda davom eting.
632. Inson hayotdan chuqur ma'no topa olmasa, o'zini rohat bilan chalg'itadi.
633. Senga ayblaringni aytmaydigan do'stingga ishonma.
634. Taraqqiyotga erishish uchun bor e'tiborimizni eskilik bilan kurashishga emas, balki yangilik yaratishga qaratishimiz lozim.
635. Shubha urug'lardan afsus darahti o'sib chiqadi.
636. Men dushmanlarimni-do'stlaringa aylantirish orqali yengaman.
637. Bugun ot minganlar o'zlaridan ketmasinlar. Chunki ertga ularning o'zlari otning o'rnida bo'lishlari mumkin.
638. Nafaqat bitta, balki yuzta mag'lubiyatdan keyin ham taslim bo'lmaslik kerak.
639. Qo'y va bo'ri "erkinlik" so'zini har xil tushunadi.

640. Biz odamlarga o'zlari qila oladigan narsani ular uchun qilish orqali yordam bera olmaymiz.
641. Dunyodagi barcha yuzlar o'z manfaati yo'lida o'zgara oladi.
642. Passiv kutayotganlar oxir-oqibat kutganlarini oladilar lekin shaxdam harakat qilayotgan odamlardan keyin.
643. Qoqilgan odamni hech kim pisand qilmaydi. Ammo ko'tarila olgan odam hayratga loyiqdir.
644. Hali u yerda emasman. Biroq kechagidan ko'ra u yerga yaqinroqman.
645. Ko'rga ko'rsata olmaysan, karga eshittir olmaysan, johilga tushuntira olmaysan.
646. Erishilgan tinchlik kutilayotgan g'alabadan yaxshiroq va ishonchliroqdir.
647. Tongda ko'zing ochilayaptimi, demak hech narsa uchun kech emas.
648. Kim bo'lsangiz ham, yaxshiroq bo'ling.
649. Har bir kuningni qisqa bir umrni yashagandek yasha!
650. Insonni kulishga qarab, tarbiyasini, nimani ustidan kuliyabganga qarab, fe'lini bilish mumkin.
651. Haqiqiy ulug'likning ibtidosi- o'z zaifligingni anglashdir.
652. Jasur fikrlar o'yinda ilg'or shashka rolini o'ynaydi: ular halok bo'ladi, lekin g'alabani ta'minlaydi.
653. Eng kulgili istak-hammaga yoqish istagi.
654. Yashashga va erkinlikka har kuni ular uchun kurashuvchi odamlargina loyiqdirlar.
655. Pulni yo'qotish- katta yo'qotish emas. Bu paytda yana pul ishlashga shoshil. Or-nomusni yo'qotish-katta yo'qotish. Ammo shon-shuhrat qozonsang, odamlar o'z fikrini o'zgartiradi. Mardlikni yo'qotish-barcha narsani yo'qotish demakdir. U holda bu dunyoga kelmaganing yaxshiroq bo'lar edi.
656. Inson o'z kuchidan foydalanmaguncha nimaga qodirligini bilmaydi.
657. Dard- insonga yo'l ko'rsatur.
658. Qush tirikligida chumolilarni yeydi. Qush o'lganida chumolilar qushni yeydi. Qanchalar kuchli bo'lsang ham vaqt sendanda kuchli ekanligini unutma.

659. Qonun qudratli, biroq ehtiyoj yana kuchliroq.
660. Jazolashga qodir bo'lmagan hakam oxir-oqibatda jinoyatga sherik bo'ladi.
661. Millionlab kitobxonga ega bo'lishga umid qilmagan yozuvchi biron satr ham yozmasligi lozim.
662. Aqlli odam ko'p narsani biladigan odam emas, balki o'zini biladigan odamdir.
663. Ko'pchilik uchun mo'ljallangan narsa menda ishtiyoq uyg'otmaydi.
664. Suv bor bo'lgan barcha joyda qurbaqa bo'lavermaydi, biroq qayerda qurbaqa bo'lsa u yerda suv bo'lishi mumkin.
665. Tug'ilish-o'limga qo'yilgan birinchi qadamdir.
666. Eng baxtsiz qul bu-o'zini ozod deb hisoblovchi qul.
667. Urush- qo'pol xatolar ro'yxati.
668. Bunyoda hech narsa bungi kunimizdan ko'ra qimmatroq emas.
669. Agar har birimiz oyog'imiz ostidagi yerni supurganimizda butun dunyo toza bo'lar edi.
670. Irodali va ruxan kuchga ega bo'lgan ishon, xatto eng mashqatli yo'llarni yengib o'ta oladi. Biroq u bir kichik shubhaga berilishi bilanoq, halok bo'ladi.
671. Har xil o'g'rilar orasida eng yomon o'g'rilar axmoqlardir: ular vaqt va kayfiyatni o'g'irlashadi.
672. Aqilli odam hayotda 3 narsadan qochadi:
Yoshlikda-aysh-ishratdan,
Yetuklikda-janjaldan,
Qarilikda-ochko'zlikdan.
673. Hamisha qahramon bo'lish mumkin emasdir, Lekin hamisha inson bo'lib qolish mumkin.
674. G'alabalar davrida- kamtar bo'l. Mag'lubiyatlar davrida esa- hotirjam.
675. Biz eshitiyotganlarimiz fakt emas, balki fikr, biz ko'rayotganlarimiz-haqiqat emas, balki nuqtai nazar.
676. Kuch bilan erisha olmasang, aqil bilan zabt et.

677. Janglarda kulish uchun mashg'ulotlarda yig'lash kerak.
678. Bugun sen o'zing istagandek inson bo'lishing mumkin edi, lekin buni o'rniga sen ertangi kunni tanlamoqdasan.
679. Qulay sharoitda o'sishga erishish imkonsizdir.
680. Yaxshi qilingan ish yaxshi aytilgan gapdan yaxshiroqdir.
681. Inson o'zini qancha ko'p sevsan, atrofdagilarni fikriga shunchalar ehtiyojli bo'ladi.
682. Agar yo'lni topa olmasang uni o'zing barpo et.
683. Dushmanan qasos olishning eng yaxshi yo'li- unga o'xshamaslikdir.
684. Zaiflikning eng jirkanch turi- bu o'ziga bo'lgan achinishdir.
685. Qo'rquvlaringni sendan qo'rqishga majbur qil.
686. O'z jhilligi va yangilishuvlariga vafodar kimsa muqarrar jabr ko'radi.
687. Sen bilan nima sodir bo'layotgani emas, balki bunga bo'lgan munosabting muhim.
688. Umr so'ngida ko'rishni istagan hayotingni bugundan yashashni boshla.
689. Og'riq muqarrar. Azob-ixtiyor.
690. Intizom- muvaffaqiyatning onasidir.
691. Taslim bo'lmagan har bir kunning- g'alaba qozongan kunningdir.
692. Insonning haqiqiy qiymati u intilayotgan maqsadlar bilan o'lchanadi.
693. Hech kim bilan u yenga olmaydigan hodisa yuz bermaydi.
694. Unutma, bugungi kunda senda mavjud bo'lgan narsa bir vaqtlar sen orzu qilgan narsalar qatorida edi.
695. Agar noto'g'ri bo'lsa, buni qilma. Agar rost bo'lmasa, buni aytma.
696. Odamlarning mulohazalari qanday manbadan o'qiyotganini ko'rganingizda edi, atrofdagilarning maqtovlari va olqishlariga befarq bo'lar edingiz.
697. O'limdan emas, hech qachon yashashni boshlamasdan qo'rqish joiz.
698. Sabrli bo'l. Imperiyalar bir kunda qurilmaydi.

699. Muammo shundaki, tavakkal qilmaslik, tavakkal qilishdan ko'ra 100 barobar havf tug'diradi.
700. Inson qanchalik xotirjam fikrga ega bo'lishga intilsa, u kuchga shunchalik yaqinlashadi.
701. Siz "yakun" deb atayotgan narsa yangi "boshlanish" ga aylanishi mumkin.
702. Yotoqdan sizni maqsad uyg'otishi lozim, majburlik emas.
703. Reja qilishda xato qilish bu- xato qilishni reja qilishdir.
704. Hozir qayerda ekanligingiz muhim emas, qayerga qarab ketayotganingiz muhim.
705. Eng avvalo hayotga nega kelganingizni anglab yeting, oliy maqsadingizni aniqlang, shundagina vaqtingiz zoya ketmaydi va umringiz bekorga sarflanmaydi.
706. 95% odamlar irrotsianal ko'rinishda ya'ni qaror qabul qilayotganda hissiyotlarga berilib ish qilishadi. Hech qachon bu xatoni qilmang. Siz qolgan 5% odamlarning ichida bo'ling.
707. Muammoni hal qilishning iloji bo'lsa, siqilishga sabab yo'q. Muammoni hal qilishni iloji bo'lmasa undan siqilishni iloji yo'q.
708. O'zingizga past baho berishga haqqingiz yo'q. Agar dunyoda bitta ulug' inson qolgan bo'lsa, o'sha inson aynan sizziz.
709. Ko'pdan-ko'p Ilon Masklar bozorlarda arava tortib yuribdi. QAncha-qanchadan Stil Jobslar dehqonchilik qilib yuribti. Qancha-qancha Muhammad Salohlar ot boqib yuribti. Qobiliyatni topib, uni tog'ri baholash bu- eng katta mahorat.
710. Bugungi tajribam bo'lganida o'tmish xatolarini qilmasdim. Lekin o'tmish xatolarini qilmaganimda bugungi tajribam bo'lmasdi.
711. Haqiqiy investitsiya bu- miyyaga qilingan investitsiya. Chunki u o'zini har doim oqlaydi.
712. Ummatga qanchalik kerakligingizni bilganingizda edi. Kechalari uxlamagan bo'lar edingiz.
713. Boshqalar qila olmadi egani buni siz ham qila olmaysiz degani emas.
714. Agar o'zingiz haqingizda chuqur tafakkur qilsangiz. Eng katta dushmaningiz o'zingiz ekanligingizni tushunib yetasiz.

715. Tassavuringizda fantsastik bo'lib tuyilgan orzular-aslida muntazam qilinadigan rejali harakat xolos.
716. Ahmoqqa berilgan eng yaxshi javob bu-sukut.
717. Hayotda agar sizga sinov keladigan bo'lsa, orqaga qochmang. Tikka turing, hudo sizga shu sinovni yengadigan kuch ham bergan.
718. Hech qachon qilayotgan ishingizni kichik sanamang. Ehtimol buyuk ishni boshlayotgandursiz.
719. Million dollarni istash boshqa, million dollarni izlash boshqa.
720. Risq allohdan lekin biz sababini qilishimiz kerak. Yaxshi umid ila harakatdan to'xtamaslik kerak.
721. Erkak kishini 3 narsa sindiradi- qimor, aroq va zino.
722. Kim qanchalik ko'p gapirsa shunchalik ko'p yutqazadi.
723. Bu hayot- kimgadir dushmanlik qilish uchun judayam qisqalik qiladi.
724. Ba'zida bizni Rossiya yoki Angliya bosib olgani yaxshiroq bo'larmidi degan savol o'ylantiradi. Lekin bizdan keyingi avlod: Biz Rossiyani bosib olsak yaxshiroq bo'ladimi yoki angliyani degan savol bermasa, biz yashamagan hisoblanamiz.
725. Bir sahoda mukammal bo'lib, keyingina biznes boshlayman demang. Biznes boshlang va shu sohada mukammallikka intiling.
726. Muammoga yaqinlashmaguningizcha muammo sizga yaqinlashmaydi.
727. Hamma o'zini isloh qilganida edi jamiyatda ixtilof qolmas edi.
728. Agar biron odam meni yonimga kelganida kiyimimning oddiyligiga yoki telefonim eskiligiga qarab qaytib ketadigan bo'lsa- men tupurdim u insonga.
729. Inson uchun eng og'ir jazo bu- johil odam bilan suhbat qurish.
730. Maqsadingiz- pul. Mansab va mashhurlikdan ko'ra oliyroq bo'lsin. Shunda shu uchchalasi ham oyog'ingiz ostida bo'ladi.
731. Akalar, urzu qilish tekin Allohning hazinasi juda katta bahaybat va aqlga sig'maydigan darajada buyuk. Tassavuringizga sig'gan barcha narsani so'rasangiz va alloh uni bersa, xazinasidan zarracha ham kamaymaydi.

732. Krizis-kimdir uchun omadsizlik, kimdir uchun esa imkoniyat.
733. Hayotingizni o'zgartirmoqchimisiz? Unda atrofingizdagi odamlarni o'zgartiring.
734. Biznes rivojlanishi uchun eng avvola biznesmenni o'zi rivojlanishi kerak.
735. Agar sizning shaxshiyatingiz brend darajasiga chiqsa-xatolaringiz trendga so'zlaringiz hikmatga aylanib ketadi.
736. 21- asr odamlarining eng katta muammosi bor. Hammani yaxshi tahlil qiladi. Hammani zo'r tushunadi. Hammaga yaxshi maslahat beradi o'zidan boshqa.
737. Yigit kishi 4 ta narsada qiz boladan ustun bo'lishi kerak: aqlda, bo'yida, nasl-nasabda va boylikda. Qiz bola ham 4 ta narsada yigit kishida ustun bo'lishi kerak: chiroyda, taqvoda, hayoda va fahm-farosatda.
738. Qaysi kasb tanlashingiz qat'iy nazar eng zo'ri bo'ling.
739. Muammolaringizni bandaga aytsangiz 50% hursand bo'ladi, 50% parvo ham qilmaydi. Dardingizni bandaga emas, hudoga ayting, shunda mushkulingizni hal bo'lish ehtimoli ko'proq bo'ladi.
740. Eng kuchli motivatsiya bu duo. Siz farzandingizni duo qilar ekansiz, harakat qilsa-qilmasa biri ikki bo'lib ketaveradi.
741. Hozirgi zamonda muvaffaqiyatga erishish uchun juda ham ko'p mehnat qilish shart emas. Boshqalarning dangasaligini o'zi bizni muvaffaqiyat bilan ta'minlab qo'yayapti.
742. Tog'ri savol berish bu- javobning teng yarimidir.
743. Banda yetishish mumkin bo'lgan eng yuqori daraja bu- bandalik.
744. Hayotda shunday yashangki, o'ringizni bosadigan odam topilmasin.
745. Beruvchi qo'l, har doyim oluvchi qo'ldan ko'ra yaxshiroq bo'lgan.
746. Hayotingizga qorong'u kunlar kelgan bo'lsa, ko'pchilik sizni tashlab ketgan, yaqinlaringiz yordam bermagan bo'lsa, sizga sinov kelib, bo'yningizni egib qo'ygan bo'lsa, hech qachon taslim bo'lmang. Tunning eng qorong'u qismi tongga bir soat qolganida bo'ladi.
747. Bir narsani bilib qo'ying. Alloh sizni yaxshi ko'radi. Agar yaxshi ko'rmaganida inson qilib yaratmagan bo'lardi. Yaxshi ko'rmaganida hazinasidagi eng buyuk narsani-

iymonni bermagan bo'lardi. Yaxshi ko'rmaganida shunday yaxshi insonlar bilan zamondosh qilmagan bo'lardi.

748. O'tmishda qilgan xatolaringiz va gunohlaringiz sizni noumid qilmasin. O'zingizga bo'lgan muhabbatingizni so'ndirib qo'ymasin. Allohning rahmatiga bo'lgan umidingiz oldida to'siq bo'lib qolmasin. Siz yaxshi gumon qiling. Alloh sizni yaxshi ko'radi.

749. O'zingizda depressiyani tashxislashdan avval ahmoqlar qurshovida emasligingizga ishonch hosil qiling.

750. Sizning shaxsiyatingiz ko'lami sizni g'azablantirishi mumkin bo'lgan muammoning hajmi bilan belgilanadi.

751. Ahmoq insonning birinchi belgisi- bu uyatning mutlaqo yo'qligi.

752. O'zingizni taqosslashingiz kerak bo'lgan yagona odam bu- o'tmishdagi sizsiz va siz yaxshiroq bo'lishingiz kerak bo'lgan odam yagona odam bu- bugungi "siz".

753. Har bir ayol qanchalik kuchli bo'lishdan qat'iy nazar, o'zidan kuchliroq erkakga bo'ysinishni xohlaydi.

754. Sabr bilan vaqt isrofi o'rtasida farq bor.

755. Agar siz kitobni tushunmasangiz unda siz johilsiz. Muallif emas.

756. Hayotda hech narsa kasallik va ahmoqlikchalik qimmatga tushmaydi.

757. Ayoli uchun o'z maqsadlaridan vos kechuvchi erkak, oxir-oqibat uni ham buni ham yo'qotadi.

758. Agar meni tanqid qilishsa, himoyalanihga tayyorman, ammo maqtovga qarshi ojizman.

759. Muammoni tan olish- uni yechimining yarimidir.

760. Hech narsa tasodifiy emas, hamma narsaning asosiy sababi bor.

761. Tush bizga qanchalik g'alati tuyulsa, uning ma'nosi shunchalik chuqurroq bo'ladi.

762. Butun hayoti mobaynida onaning suyuqli farzandi bo'lgan odam g'oliblik va omadga ishonch hissini o'z ichiga singdiradi. Bu ko'p hollarda haqiqiy muvaffaqiyatga olib keladi.

763. Ko'tarib yurish mumkin bo'lgan eng og'ir yuk, bu-qabul qilinmagan qaror.

754. Odamlar o'zlari o'ylaganlaridan ko'ra axloqliroq va o'zi tassavur qilganidan ham axloqsizroqdir.
755. Ilon terisini tashlamasa nubud bo'lmagani kabi keraksiz fikrlardan xolos bo'lmagan ong ham oqsaydi.
756. Omma hech qachon haqiqatga intilmagan. Ular shirin yolg'onsiz yashay olmaydi.
757. Har bir insonning boshqalardan yashiradigan va xatto o'ziga-o'zi tan olmaydigan istaklari mavjud.
758. Bugun kitob yaqoyatgan millat, ertaga odamlarni ham yoqadi.
759. Inson ruhiy hastaligining siri bolalikning ichki drammlarida yashiringan. Ushbu drammlarning tubiga yeting va shifoni topasiz.
760. Jinsiy aloqaning cheklanishi, uning qiymatini oshishiga olib keladi.
761. Biz dunyoga yolg'iz kelamiz, va uni yolg'iz tark etamiz.
762. Aytilishi kerak bo'lgan barcha gaplar aytib bo'lingan, lekin hechkim eshitmaganligi sababli yana aytilishi lozim.
763. Ilmsiz amal befoydadir, amalsiz ilm esa foydasizdir.
764. Aldama va hiyonat qilma, hattoki dushmaninga nisbattan ham.
765. 70 marta tavbangni buzsang ham yana tavba qil.
766. Kim jannatga intilsa odamlarga yaxshi muamila qilishni o'rgansin.
767. Boy odam kibirlansa yomon, lekin kambag'al kibirlansa bundan ham yomondir.
768. Bu dunyodagi musofirchiligimiz-o'tkinchi, undagi hayotimiz-faqat qarz, nafasimiz-anoqli, dangasalimiz esa-ayondir.
769. Qabrga tayyorgarliksiz kirgan kishi, kemasiz dengizga tushgan odamga o'xshaydi.
770. Tongda qushlar sizdan oldin uyg'onishi sharmandalik.
771. Yolg'izlik- yomon odamlardning suhbatidan yaxshiroqdir.
772. Allohga bo'lgan ishtiyoqim buzilmasligi uchun, musulmon bo'lganimdan keyin to'yib ovqat yemadim, qonib suv ichmadim.
773. Ulug'likdan qoch va ulug'likka erishasan.
774. Haqiqiy mo'minga har narsada, hattoki qayg'uda ham mukofat bor.

775. Dunyo ila oxirat ikki oilasi bor kishiga o'xshar. Inson birini rozi qilarkan ikkinchisini ranjitadi.
776. O'lim undan keying barcha narsalarning eng osoni va undan oldingi barcha narsalarning eng qiyinidir.
777. Rostg'oylik-omonatdir, yolg'onchilik- hiyonatdir.
778. Haq bo'lgan zaif meni huzurimda kuchli, lekin nohaq bo'la turib orangizda kuchli bo'lgan kishi men uchun zaifdir.
779. Kuch va quvvat faqat allohdandir.
780. Balki sizga yoqmagan narsalar sizning manfaatingiz uchundir. Ehtimol siz xohlayotgan narsalar manfaatingizga zidir.
781. Ilmning qanchalik ko'p bo'lsa, Allohdan qo'rqishingiz shunchalar kuchayadi.
782. Insonni gapira oladigan yo ta'yinli gapi bo'lishi kerak, yo jim tura oladigan odabi.
783. Har kuni, yo'q, har lahzada yaxshilik qilishga harakat qiling.
784. Ey inson, sen dunyoni obod qilish harakatidasan, dunyo esa seni o'zidan haydash harakatida.
785. Dunyo kezib oxiratni topganni ko'rmadik, lekin oxiratni qidirib dunyosini topganni ko'rdik.
786. Yer ustida allohga nisbatan obod saqlamaganni, alloh yer ostida tarbiyalab qo'yadi.
787. Kimning so'zi ko'paysa, xatosi ko'payadi.
788. Ahmoqlar himmati- rivoyat qilish, ulamolar himmati-rioya qilishdir.
789. Kim senga gap yetkazsa, bilginki, sening gapingni ham boshqaga yetkazadi.
790. Dunyo asli zulmatdir! Magar ulamolar majlisgina mustasno.
791. Quyoshning har botishida bir kamayishing bor.
792. Mo'min degan o'z nafsining hokimi bo'lmog'I kerak.
793. Insonga kifoya qiladigan oz narsa, uni robbisidan to'sib qo'yuvchi ko'p narsadan ming marta yaxshidir.
794. O'lim dunyo hayotini bir pul qildi. Shu tufayli farosatli insonlarga quvonish uchun hech imkon qoldirmadi.

795. Eng qutirgan hayvon ham pishiq qarmoq bilan ilintirishga nafsingchalik loyiq emas
796. Kimning kalomi hikmat bo'lmasa, u- lag'vdir (foydasiz).
- Kimning sukuti tafakkur bo'lmasa, u- sahvdir (adashishdir).
- Kimning nazari ibrat bo'lmasa, u- lahvdir (o'rindir).
797. Faqirlik, hastalik va o'lim bo'lmaganida, inson bolasining boshi kibrdan ko'tarilmas edi.
798. Ikki dirhami bor odam bir dirhamga ega odamdan ko'ra dunyoga harisroq bo'ladi.
799. Tavba- hamma yaxshiliklarning kalitidir.
800. Ko'p ibodat qilaman deb mag'rurlanmagan, iblisning ming yillar qilgan ibodati nim bo'lganini eslab fikr yurit.
801. Inson dunyolarga hokim bo'lar, har doyim kichkinagina qalbga sirdir.
802. Qur'ondan ortiq boylik, undan mahrum bo'lishdek kambag'allik yo'q.
803. Torlik- ziqlanik qilmanglar, aks holda sizlarga torlik qilinadi.
804. Insonlarga so'zingiz bilan emas, amalingiz bilan pandu-nasihat qiling.
805. Mo'minning eng yaxshi fazilati- uning kechirimli ekanidir.
806. Hech qachon bir kishini mehrini qozonaman deb, bir kishin bo'lsada o'zinga dushman qilma.
807. Qabr insonning go'shtini ham, suyagini ham yeydi. Faqat iymonini yemaydi.
808. Birovni ko'rganida "u mendan afzal ekan" deguvchi odam-zohiddir.
809. Dunyo hayoti uch kun: kecha, bugun, erta. Kecha o'tdi, ertaning bo'lishi noma'lur. Shunday ekan, bugungi kunni qadirlash lozim.
810. Inson ongi orqali qabul qilgan va anglay olgan har qanday narsalarni qo'lga kiritishga qodir.
811. Kichik istaklar kichik natijalarga olib keladi. Huddi oz muqdorda olov, oz miqdorda issiqlik bergani kabi.
812. Omad kelmaydi, omadga boriladi.
813. Qashoqlik bizning dangasalik yoki befarqligimiz natijasidan boshqa narsa emas.

814. Shamolning yo'nalishini o'zgartirish imkonsiz, biroq yelkanlar o'z qo'limizda.
815. Biz odatlarimizning qulimiz. Odatlaringizni o'zgartiring va hayotingiz o'zgaradi.
816. Dunyodagi eng arzon tavar- bu atrofdagilarning fikri.
817. Agar siz hayotda biror narsaga erishmoqchi bo'lsangiz, ongingiz his-tuyg'ularingizdan kuchliroq bo'lishi kerak.
818. Haqiqiy ta'lim maktab yakunlangandan so'ng boshlanadi.
819. Qattiq bahsda har doyim tabassum g'alaba qozanadi. Chunki kulib turgan odam bilan bahslashish qiyin.
820. Gap pulda emas, gap pulning qanchaligida.
821. Kutmang. Vaqt hech qachon qulay bo'lmaydi. Shunchaki qiling.
822. Kambag'al, muvaffaqiyatsiz, baxtsiz va nosog'lom kishi- "ertaga" so'zini tez-tez ishlatadigan kishi.
823. Butun kuch va etiboringizni kerakli maqsadga qarating. Shunda keraksiuz narsalardan qo'rqishga vaqtingiz bo'lmaydi.
824. "Vaqtim bo'lmadi" so'zi bir kun kelib sizga juda qimmatga tushadi.
825. Hech qanday zavq bag'ishlamaydigan ishda muvaffaqiyatga erishish imkonsiz.
826. Siz haqingizda haqiqatni aytadiganlardan maslahat so'rang, hatto uni eshitish sizni xafa qilsa ham.
827. Pul tezlikni yaxshi ko'radi va qat'iyatsizlikni yomon koradi.
828. Muammolarga yechim qidirmang, ularni chetlab o'tish yo'lini izlang.
829. Har bir inson badavlat bo'la oladi. Shunchaki boylikni- yetishib bo'lmas marra sifatida qabul qilishni to'xtatsalar bas.
830. Kambag'al va o'rta tabaqadagilar pul uchun ishlaydilar. Boylarning esa ular uchun ishlaydigan pullari bor.
831. G'oliblar yutqazishdan qo'rqmaydilar. Muvaffaqiyatsizlik muvaffaqiyat sari yo'ning bir qismidir. Muvaffaqiyatsizlikdan qochadigan odamlar- muvaffaqiyatdan ham qochadilar.
832. Pessimist- bu omad uning eshigini taqillatganida shovqundan shikoyat qiladigan odam.

833. Sizning miyangiz hamma narsani qila oladi. Mutloqa hamma narsani. Asosiysi o'zingizni bunga ishontirishdir. Qo'llar kuchsiz ekanligini bilmaydi. Ayoqlar zaif ekani, buni faqat miyangiz biladi. O'zingizni hamma narsani qila olishingizga ishontirish orqali siz hamma narsani qila olasiz.

834. Juda ko'p odamlar g'alabaga bir qadam qolganida taslim bo'lishadi. Esingizda bo'lsin: bu qadamni boshqalar tashlaydi.

835. O'z to'ningga solsang ham yetti yuz yamoq, o'zga to'nini so'ragandan yaxshiroq.

836. Martlik kuchda va shamshir o'ynatish san'atida emas, mardlik o'zini tuta nilishda va adolatli bo'la bilishdadir.

837. Kim mehr ko'rgazdi yirtqich bo'riga, sitam-la sho'r qo'shdi qo'yning sho'riga.

838. Dushmaning eng katta hiylasi-uni do'st tutganidir.

839. Agar muallim bo'lsa beozor, darsxonani qilgay bolalar bozor.

840. Kim agar o'sibdi noz-u ne'matlar, holi og'ir bo'lar, qolsa kulfatda.

841. Johil uchun eng yaxshi ish- jim turishdir. Vaholanki, u buni bilganida johil bo'lmas edi.

842. G'aming oshsa, daryo yoqala, shodlik oshsa mozor yoqala.

843. Qozi besh bodiring yesa gar pora, yuz poliz hukmiga topadi chora.

844. G'anim so'ziga kirish- xatolik, ammo unga teskari ish tutmoq uchun uni tinglamoqdarkor.

845. Yaxshiga yaxshi bo'l, yomonga yomon, gulag gul bo'lgin-u tikonga tikon.

846. O'zing topib yegan sirka-yu piyoz, oqsaqolning non-u barrasidan soz.

847. G'animning yolg'onligi, laganbardorning, shirin suxaniga uchma. Birinchisi ayyorlik to'rini tashlagan. Ikkinchisi seni yiqilishingni kutib turibdi.

848. Qaysarga nasihat qilgan kishining o'zi nasihatga muhtojdir.

849. O'tirgil och-u bechora yalong'och, vale nokasga aslo bo'lma muhtoj.

850. Haddan oshgan g'azab qo'rquv tug'dirar, me'yorsiz erkalash olomon ko'z o'ngida obro'yingni to'kur.

851. Tani tuproqda-yu dil bo'lsa uyg'oq, tirik murda dildan o'sha yaxshiroq.

852. Ozor beruvchi darajada shavqatsiz va uchragan kimsa seni turtib ketar darajada yuvosh bo'lma.
853. Kim yovuzlik urug'ini sepsa, pushaymonlik mevasini yig'ar.
854. O'zgalar g'amini chekmasa odam, anga noloyiqdir inson, degan nom.
855. Yosh xotinning biqinida chol yotgandan ko'ra shu biqinga kamon o'qi botgani yaxshi.
856. Boshqalar moliga ko'ngil qo'ymagil, so'ngra ko'ngil uzmoq, juda ham mushkul.
857. Agar tarbiyat ko'rmasa odam, eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.
858. Senga o'zini taklif qilgan ayolga uylanma.
859. Diling kuymasin noumidlikdan, yorug' kun tug'ilgay qaro kechadan.
860. Xudo yozganini o'chira olmaydi. Hudo berganini bandasi tortib ola olmaydi.
861. Telbalarga tazim qiling! Yuzta donishmand aytolmagan haqiqatni bitta telba aytadi!
862. Dunyoda eng aqilli janivor- baliq! Birinchidan saqov, ikkinchidan, mutassil harakatda.
863. Ayol qalbi teskari magnitga o'xshaydi: yaqinlashsang- uzoqlashadi, uzoqlashsang- uzoqlashadi.
864. Kulishni bilmaydigan odam baxtsiz odam, yig'lashni bilmaydigan odam ikki hissa baxtsiz!
865. Nodondanlar davrida davrasida kar, bo'l, donolar davrasida saqov bo'l.
866. Sopol tovog'ing sinsa, dod sol, kesakka aylanadi. Tilla idishing sinsa, parvo qilma, bahosi tushmaydi.
867. Kiyik och qolmaslik uchun ko'kat yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Odam ko'katni ham yeydi, kiyikni ham yeydi, ko'ngilxushlik uchun sherni ham o'ldiradi. Keyin urush qilib, bir-birining boshini yeydi.
868. Ikki qo'chqor suzishsa, bo'rining nasibasi butun bo'ladi.
869. Begona ayolni o'zining oldida maqtang, o'z ayolingizni o'zi yo'g'ida maqtang.
870. Yomonlarni ehtiyot qiling, Yomon yo'q bo'lsa, yaxshining qadri bilinmay qoladi.

871. Hech nimaga hayron qolmaydigan odamdan olim chiqadi. Hamma narsaga hayratlanadigan odamdan shoir chiqadi.
872. Aql bilan mansabga erishi mumkin, mansab bilan aqlga erishib bo'lmaydi.
873. Shijoatli bo'l, biroq andishasiz bo'lma. Andishali bo'l, biroq shijoatsiz bo'lma.
874. Rostgo'y odamning bitta ojizligi bo'ladi, uni aldash oson.
875. Insoniyat orol emas, qit'a bo'lib yashashni o'rgansa ko'p balolarning oldi olingan bo'lar edi.
876. Ayolni kaftingda ko'tar, ammo boshingga chiqarma.
877. Sahnadagi o'yin hayotdagi o'yinlar oldida o'yinchoqdir.
878. Aql shunday xazinaki, qancha ko'p ishlatsangiz, shuncha to'lishib bora beradi.
879. Birovga choq qazigan odam o'zi yiqiladi. O'sha chuqurga bo'lmasa boshqasiga. Bugun bo'lmasa ertaga.
880. Goho 32 ta tish bitta tilga soqchilik qila olmaydida bosh baloga qoladi.
881. Do'stim menga nima berdi? deyishdan oldin, men do'stinga nima berdim deyishni odat qil.
882. Bola tug'dirganlarning hammasi ham ota bo'lavermaydi. Bola tuqqanlarning hammasi ham ona bo'lavermaydi. Bolalarning hammasi ham farzand bo'la bermaydi.
883. Agar dushmaning kulayotgan bo'lsa, demak siringni bilibdi.
884. Noningni yo'qotsang yo'qot, ammo nomingni yo'qotma.
885. Dunyo tashvishlaridan to'yib ketsangiz keksa odamlarni to'yib ketsangiz keksa odamlarni ziyorat qiling: hayot abadiy emasligini o'ylab, taskin topasiz. Ertangi kun g'ami yuragingizni siqsa, go'dakni bag'ringizga bosing: hayot abadiy ekanligini o'ylab taskin topasiz.
886. Seniki bo'lgan narsa- seni aniq topadi.
887. Poklar- poklarga tegishlidir.
888. Yurak ko'zdan oldin ko'radi.
889. Qo'rqqoqlik hali hech kimni qutqarmagan.
890. Zaiflik bildirmasdan muloyim bo'l, dag'allik bildirmasdan kuchli bo'l.

891. Ayol sha'ni himoya qilinmagan o'lkada haqiqiy erkaklar ulg'aymaydi.
892. Pul- yaxshi hizmatkor lekin yomon xo'jayin.
893. Xotirjam urayotgan yurak oltin to'la qoplardanda afzaldir.
894. Arslon boshchiligidagi qo'chqorlar qo'shini har doyim qo'chqor boshchiligidagi arslonlar qo'shini yengadi.
895. Juda yumshoq bo'lma, yanchib tashlashadi, juda qatti ham bo'lma, sindirishadi.
896. Faqatgina mevali daraxtga tosh otiladi.
897. Devor ortidagi mingta dushmandan ko'ra- devor ichidagi bitta dushman havfliroqdir.
898. Qo'rsang gapirma, gapirsang qo'rqma.
899. Erkakning sha'ni ayoldir, ayolning sha'ni hayodir.
900. O'z xatosini tan olmaslik- eng havfli xatodir.
901. Benuqson do'st qidirgan odam yolg'izlikka mahkum.
902. Qimmatli so'zlaringni- arzon insonlarga sarflama.
903. Silagan qo'llarni qadriga yetmaganlar- tepilgan ayoqni o'pib yashaydilar.
904. Kamtar odam bu- maqto'vni ikki marta eshitishni xohlaydigan odam.
905. Bo'rilarga yem bo'lmay desang, o'zing bo'ri bo'l.
906. Jasurning nigohi qo'rqqo'ning qilichidan o'tkiroq.
907. Agar xohlaganingiz bo'lmasa bo'lganini xohlang.
908. Xotinni uzoqdan bog'ni yaqindan tanla.
909. Oz ye, ko'p yashaysan.
910. O'zing haqingda yaxshi gap eshitmoqchi bo'lsang, o'lib ko'r.
911. Sher xatto qafasda ham sher.
912. Kechagi kunni unut. Ertangi kunni tashvishini qilma, bugungi kunni qadriga yet.
913. Go'zallik har narsada mavjud, lekin uni hamma ham ko'ra olmaydi.
914. Agar seni ortingdan g'iybat qilishayotgan bo'lsa, demak sen oldindasan.

915. Siz nafratlanayotgan inson allaqachon sizni yengib bo'libdi.
916. Mayda chuydalardan o'zini tiya olmaslik, katta ishlarni halok qiladi.
917. Hech qachon yiqilmagan emas, balki yiqilib qayta tura olgan ulug'dir.
918. Xatoga yo'l qo'yib uni tuzatmaslik ikkinchi xatodir.
919. Tog'ni talqin qilmoqchi bo'lganlar ham kichik toshlarni maydalashdan boshlaydi.
920. Maqsadga erisha olmasangiz, xarakat rejangizni o'zgartiring. Maqsadni emas.
921. O'zgalarning fikrini takrorlashni- donolik, itoatsizlikni- jasorat, o'zgalarning sirini oshkor qilishni- rostg'o'ylik deb biluvchilardan jirkanaman.
922. Oddiylilik- insonning eng yaxshi fazilatlaridan biridir.
923. 3 narsa hech qachon qaytib kelmaydi: vaqt, so'z va imkoniyat. Shuning uchun vaqtni behuda sarflamang, so'zlarni tanlab gapiring va imkoniyatni boy bermang.
924. Ruhan oliyhimmat insonlar bosib-vazmin bo'ladi. Pastkash kishilargina doimi havotirda bo'ladi.
925. Hayot aslida soda, faqat biz uni murakkablashtirishga urinamiz.
926. O'zingizga yoqadigan kasbni toping va siz umringizda bir kun ham ishlamaysiz.
927. Olmos ishlov berilmay sof bo'lmagani kabi, inson ham dars istirob chekmagani kab komil bo'la olmaydi.
928. Sukut bu- senga hech qachon pand bermaydigan do'stingdir.
929. Agar siz xonadsgi eng aqilli inson bo'lsangiz, demak bo'lishingiz kerak bo'lgan xonada emassiz.
930. Aqlli ayol o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirishga harakat qiladi. Erini emas.
931. Faqatgina eng don ova eng axmoqlargagina ta'lim berish befoyda.
932. So'z vafoli bo'lishi kerak. Harakat esa shahdam.
933. Ikki turdagi odamlar bilan munisabat qurtish qiyin: ayollar va pastkash odamlar. Agar yaqinlashsang- o'zidan ketadi. Uzoqlashsang- nafratlanishni boshlaydi.
934. Bu dunyoda dono inson- havotirsiz, oqil inson- tashvishsiz, jasur inson- qo'rquvsiz yashaydi.
935. Agar do'stingga haddan tashqari mehribon bo'lsang uni hurmatini yo'qotasan.

936. Aqlli odam o'z kamchiliklaridan uyaladi, lekin ularni tuzatishdan uyalmaydi.
937. Hayotingizda nima ish qilsangiz ham uni butun qalbingiz bilan qiling.
938. Boshlavchilar ko'p, tugatuvchilar kam.
939. Birinchi yolg'ondan so'ng, barcha haqiqatlar shubhalidir. Ikkinchi yolg'ondan so'ng barcha shubhalar haqiqatdir.
940. Erkin bo'lishning bitta yo'li bor, bizga bog'liq bo'lmagan barcha narsaga e'tibor bermaslik.
941. Shunday odamlar borki, ular kitobni faqat muallifning xatolarini topish uchun o'qiydilar.
942. Birovlarning aybini ko'ruvchi ko'z, haqni ko'rishdan mahrum, chunki uning nazari doimo boshqalarga qaratilgan.
943. O'zini topgan kishi, boshqalarning fikriga bo'lgan ehtiyojni yo'qotadi.
944. Sizni hafa qilish qanchalik oson bo'lsa, sizni boshqarish ham shunchalik oson bo'ladi.
945. Ko'p yillar oldin daraxt ekkan odam, bugun soyada dam olmoqda.
946. Chiroyli idishdan nima foyda, agar u baribir bo'sh bo'lsa?
947. Pavlusning Butrus haqida aytganlari bizga Butrusdan ko'ra Pavlus haqida ko'proq ma'lumot beradi.
948. Birodaringni kechirib qo'yaver, Alloh sen sababli uni azoblashi senga foyda keltirmaydi.
949. Ochiq-oydin aqilli bo'lib ko'rinish nodonlikdir. Ochiq-oydin nodonlik bo'lib ko'rinish esa donoliik.
950. Ko'rsatganingizdan ko'prog'iga ega bo'ling, bilganingizdan kamrog'ini gapiring.
951. Hech qanday muammo barqaror fikrlash hujumiga dosh bera olmaydi.
952. Yaxshi ssenariyda ortiqcha sahnalar bo'lmaydi.
953. Hozirgi kunda odamlar hamma narsaning narxini bilishadi, lekin hech narsaning qadirini bilishmaydi.
954. Eng muhumi bu aytilgan gaplar va qilingan ishlar emas, balki aytilmay qolib ketgan gaplar va qilinmay tashlab ketgan ishlardir.

955. Agar o'ylamasdan gapirgan bo'lsangiz, demak siz ko'nglingizdagi gapni aytibsiz.
956. Eng og'ir jang bu- aql va yurak o'rtasidagi jangdir. Qay biri g'olib bo'lmasin qurbo o'zingsan.
957. Pozitiv bo'ling, siz poyezga kechikmadingiz, Balki keying poyezga oldinroq keldingiz.
958. Axlatni axlat qutushiga tashlashni bilmaydigan xalqdan, kerakli shaxsni kerakli mansabga qo'yishni kutma.
959. Agar odamlar bilan ularning aqli yetmaydigan mavzular haqida gaplashsangiz, ular o'zini emas, sizni axmoq deb hisoblaydi.
960. Bu dunyoda hech nars abadiy emas, shu jumladan sizning muammolaringiz ham.
961. Vahima qilish yarim kasallikdir. Xotirjamlik yarim sog'liqdir. Sabr esa shifoning boshlanishidir.
962. Qanday qilib har inson o'zini boshqa odamlardan ko'ra ko'proq sevadi-yu boshqalarning fikridan ko'ra o'z fikrini kamroq qadrlaydi?
963. Fikringizda g'ayrooddiy bo'lishdan qo'rqmang. Chunki hozir amalga oshgan har qanday fikr bir vaqtlar g'ayrioddiy edi.
964. Agar biron- bir narsangni yo'qotsang shodlon, chunki undanda ko'p narsa yo'qotishing mumkin edi. Ko'p narsani yo'qotsang, unda ham shodlon. Chunki hamma narsangni yo'qotishing ham mumkin edi. Hamma narsangni yo'qotsang ham shodlon. Chunki endi yo'qotadigan narsang yo'q.
965. Men bu xatni juda uzun qildim, chunki uni qisqartirishga vaqtim yo'q edi.
966. Parvoz qanchalik yuksak bo'lsa, qulash shunchalar daxshatlidir.
967. Asal bor joyda pashsha ham topiladi.
968. Ertaga degan yo'lni tanlasangiz, hech qachon degan mamlakatga olib boradi.
969. Og'ir qozon kech qaynar.
970. Mushuk boqishga eringan odam sichqonlarni boqishga mahkum.
971. Birovga choq qazisang, unga bir kun o'zing tushasan.
972. Chap qo'ling berayotganini, o'ng qo'ling bilmasin.
973. Ko'rgan hamma narsnga ham ishonma, zero tuz ham ba'zida shakardek ko'rinadi.

974. Yog'ochga tayanma, chunki bir kun chiriydi, insonga tayanma chunki u ham bir kuni o'ladi.
975. Oyoq sig'magan joyga bosh suqma.
976. Ari chaqmagan kimsa, bolning qadrini qayerdan bilsin.
977. Tog'lar qanchalik baland bo'lmasin dovon topiladi.
978. Ikki kishi gapirsa, uchinchisi bo'lmang.
979. Tiriklarga kulmang, o'liklarga yig'lamang.
980. Inson 9 yoshda qanday bo'lsa, 90 yoshda ham shunday bo'ladi.
981. Och o'ylaydi, to'ymayman deb. To'q o'ylaydi och qolmayman deb.
982. Eng baxtli odam hali beshikdan tushmagan.
983. Kimga yaxshilik qilgan bo'lsang, ana o'shandan ehtiyot bo'l.
984. Daraxt qanchalik ko'p meva bersa, shoxi shunchalik egiladi.
985. Odamlarning yarimi sen qoqilganingda, "aytgandim" deydi, yarimi sen g'alaba qozonsang "men buni bilgandim" deydi.
986. Shoqolsiz o'rmon bo'lmaydi.
987. Bo'ydoqlik ko'zi bilan o'zinga xotin tanlama.
988. Oltin- olov biln sinaladi. Ayol- oltin bilan sinaladi. Erkak ayol bilan sinaladi.
989. Dangasaga ish buyursang otangdek aql o'rgatadi.
990. Xiyonatni kechirgan kishini yangi hiyonat kutadi.
991. Insonlar bilan hamroh bo'lsang, insonsan, eshshaklar bilan hamroh bo'lsang, eshshak bo'lasan.
992. Shunday yashagingki, boshqalar senga havas qilsin, hasad qilsin, lekin achinib rahmi kelmasin.
993. Haqiqat har doim ham g'ozal emas, va go'zal so'zlarning ham barchasi ham haqiqat emas.
994. Qasos bu- sovuq holda tortiladigan taomdir.
995. O'zgalarini yengan- kuchlidir. O'zini yenggan esa- qudratlidir.

996. Hatto ming kilometrli sayohat ham birgina qadamdan boshlanadi.

997. Oluvchi odam qo'llarini to'ldiradi, beruvchi odam esa yuragini.

998. Agar kimdir hamma narsani bildim deb hisoblasa, demak u hali hech narsani bilmaydi.

999. Sabrli bo'ling. Loyqalangan suv tinishini kuting. Vaziyat tiniq va shaffof holga kelganida, yechim o'z- o'zidan paydo bo'ladi.

1000. Mahzunlik alam, qo'rquv va qayg'u insonni kuchsizlantiradi. Bu holatlar tananing quvvatini befoyda sarflaydi va kasalliklarga olib keladi.

1001. Sirti qattiq, ichi yumshoq bo'lishdan ko'ra, sirti yumshoq, ichi qattiq bo'lgan avfzaldir.

1002. Osonlik bilan erishiladigan kelishuv- ishonchli emas.

1003. Tepallikka chiqayotganingda sendan qolib ketganlarning ustidan kulma. Hali ularni pastga tushayotganingda yana uchratasan.

1004. Yumshoqlik va egiluvchanlik doimo qattqlik va kuch ustidan g'alaba qozonadi. Dunyoda suvdan yumshoqroq narsa yo'q, lekin u qarshisidagi narsa qattiq narsalarni yakson qila oladi.

1005. Sizni- g'azabingizni qozg'ata olgan inson boshqaradi.

1006. Qachonki qonunlar va buyruqlar ko'paysa, og'ri va qaroqchilar soni ortadi.

1007. Ko'p va'da beradigan inson- ishonchingizga loyiq emas.

1008. O'zligimdan ozod bo'la olganimdagina bo'la olishim mumkin bo'lgan shaxsga aylana olaman.

1009. Mahoratli jangchi- hech qachon hissiyotlarga berilmaydi, na g'azab, na qo'rquv va na xursandchilik uni jangdan chalg'ita olmaydi. Sovuqqonchilik- g'alabaga eltuvchi hamrohdur.

1010. Dushmani pisand qilmaslik-eng havfli xatodir. Undan qo'rqish deyarli mag'lubiyatdir. Hotirjamlik eng katta kuchdir.

1011. To'g'ri so'zlovchining hamsuhbati ko'p bo'lmaydi. Chunki haqiqat odamlarning qulog'iga og'irlik qiladi.

1012. Dono odam o'zini ko'z-ko'z qilmaydi, shuning uchun u porlaydi. U o'zi haqida gapirmaydi, shuning uchun uni hamma taniydi. U o'zini ulug'lamaydi. Shuning uchun u

hrmatga munosibdir. O'zini boshqalardan ustun ko'rmaydi, shuning uchun uni hamma sevadi. U ko'p ish qiladi, lekin qilgan ishi bilan mahtanmaydi. Chunki u amallar so'zlardan balandroq ekanligini biladi.

1013. Musulmon kishini har kuni shayton bilan 5 raundlik jang kutadi.

1014. Ilmni fursat bo'lganida o'rganaverish kerak. Chunki ilm zarur bo'lgan paytda fursat topilmaydi.

1015. Kishining ma'lmotga loyiq bo'lgan eng yomon sifati rashkchi bo'lmaganidir.

1016. Oxiri jahannam bo'lgan rohatning nimasi rohat? Oxiri rohat bo'lgan mashaqqatning nimasi mashaqqat?

1017. Qashshaqlok bu dunyoda-yuk, oxiratda yengillik.

1018. Ba'zan o'tmishi eng yomon bo'lgan odamlar o'zlariga eng yaxshi kelajakni yaratadilar.

1019. Sizni allohga qaytaruvchi qayg'u sizni undan uzoqlashtiruvchi quvonchdan avfzaldir.

1020. Hech qachon mahzun bo'lma. Agar gunohkar bo'lsang tavba qil. Yomon ish qilib qo'ygan bo'lsang istig'for ayt, xato qilgan bo'lsang isloh qil. Allohning rahmati keng, tavba eshiklari ochiqdir.

1021. Qirq olimni bir dalil bilan yengdim, lekin bir johilni qiriq dalil bilan ham yenga olmadim.

1022. Kim senga gap yetkazsa, bilginki seni ham gapingni boshqaga yetkazadi.

1023. Bizning eng katta xatoyimiz- boshqalarning xatosiga bo'lgan qiziqishimizdir.

1024. Aqlli inson pulni cho'ntagida saqlaydi, qalbida emas.

1025. Aql bilan mansabga erishish mumkin, mansab bilan aqlga erishib bo'lmaydi.

1026. Sukut-insonning eng harir libosidir.

1027. Aslo odam bino qo'yma o'zinga, sen nechuk jonsan? O'limni vahmini ko'rgin, oxiri yer birla yaksonsan!

1028. Yutganing o'zingniki, chaynaganing- gumon.

1029. Odamlarning maqtovi senga nima beradi? Agar o'sha odamlar sening gunohlaringni bilganda- qo'lingni ham olmasligi aniq bo'lsa.

1030. Inson uchun ko'zlaringni fido qilsang, o'zi ko'r edi deyishadi?
1031. Dardi dunyo bo'lganing dunyo qadar dardi bo'lur.
1032. Zinhor bu yolg'onchi dunyoda o'likdan-jon, gadoydan-sadaqa, xasisdan-nasiba, so'ramang. Nima so'rasangiz faqat allohdan so'rang.
1033. Hayo chiqib ketgan eshikdan balo kirib keladi.
1034. O'qimaydigan ummat vaqtidan oldin o'ladi.
1035. Og'ir kuningizda yoningizda bo'lgan insonlarni va sizni tark etgan insonlarni eslat qoling.
1036. Topganini ulashgan-saxiy, tabassumini ulashgan-baxtli.
1037. O'qishni bilsangiz, har bir inson bir kitobdir.
1038. Alloh sening niyatingni bilar ekan, sen ularning yomon niyatiga parvo qilma.
1039. Aqlli odamlar hech qachon o'tib ketgan ishlar kitobini o'qimaydi. Esdan chiqarish zindoniga tashlaydi, beparvolik ipi bilan bog'laydi va qaytib u yerdan chiqarmaydi. Chunki u ish o'tdi ketdi.
1040. Hech kimim yo'q demang, xatto sukutungizni eshitguvchi bor.
1041. Agar ba'zan hech bir sababsiz, qalbingiz siqilsa, bilingki ruhingiz allohning zikrini istamoqda.
1042. Meni kechirmaydi deb, Allohga sajda qilmay yurganlar bilsinki, alloh sizni kutiyabdi. Bo'ldi endi turing, tahorat qiling, allohga yuzlaning.
1043. Inson uchun eng katta kulfat bu uning Alloh bilan aloqasini uzishidir. Qolgan hammasi ikkinchi darajalidir.
1044. Odamlarning nozik taraflaridan foydalanib, ularni ranjita ko'rmang. Haqqingiz yo'q!
1045. Chiroyli gaplardan ko'ra chiroyli amallar yaxshiroq.
1046. Sizni boringizcha qabul qilib, xato va kamchiliklaringizga qaramasdan, eng og'ir kunlaringizda ham yoningizda bo'lgan insonlarni vaqtida qadrlang.
1047. Sevishdan osoni yo'q. Muhimi sizni ham sevuvchi insonni topish.
1048. Samimiy bo'ling, insonlarning sizga bo'lgan munosabatlariga baho bering. Atrofingizdagilarni tog'ri baholang, qadrlang, seving, seving, o'zingizni baxtli his

qilgan inson yonida qoling, salomga yarasha alik oling, aytishni xohlagan gapingizni u odamga tortinmasdan ayta oling, bu xoh sevgi bo'lsin xoh nafratlanishingiz bo'lsin.

1049. Tanlov qilishda ikkilansangiz, tanga tashlab ko'ring. Tanganing tushgan tarafi sizni qoniqtirmasa, demak siz tanlov qilib bo'lgansiz. Ya'ni u odamni yo'qotishdan qo'rqsangiz, qadrlasangiz, sevsangiz va ardoqlasangiz, aqalli oz bo'lsa ham iliqlik bo'lsa albatta buni o'ziga bildiring. Ketishini jimgina kutmang.

1050. Sizning nozik taraflaringizni bila turib undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanmagan insonni seving. Ishoning bunday insonlar topilmaydi. U xoh birodaringiz bo'lsin, xoh sevgan yoringiz farqi yo'q. Muhim sizda eng qimmatli insoningiz bor va sizdan baxtli inson yo'q.

1051. Ta'lim – bu jamiyatning eng kuchli qurolidir; u bilan dunyoni o'zgartirish mumkin

1052. Sevgi – bu yurakning tilsiz, ammo eng tiniq so'zidir.

1053. Boylik o'zgaradi, ammo bilim doimiy sarmoyadir.

1054. Chin muhabbat – sening kamchiliklaringni bilib turib ham, seni tanlashdir.

1055. Har bir musulmonning vazifasi – nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham ma'rifat bilan yuksaltirishdir.

1056. Boylar o'z vaqtini pulga aylantiradi, kambag'allar pulini vaqtda yo'qotadi.

1057. Hech narsa o'zgarmasa, o'zgarishni o'zingdan boshlagin.

1058. Sabr – bu faqat kutish emas, balki kutayotganda o'zini to'g'ri tutishdir.

1059. Ishqni faqat yurak emas, ong ham boshqarishi kerak.

1060. Har bir muvaffaqiyatli inson orqasida uzoq yillar mehnat va sabr bor.

1061. Mol-mulk ko'payganda emas, hayoting mazmunli bo'lganda baxt topasan.

1062. Ta'limga sarmoya – eng foydali sarmoyadir.

1063. Faqat yuragiga taalluqli narsalargagina ishon.

